

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
TARIX FAKULTETI

TARIX KAFEDRASI

Tarix yo'nalishi 08-436-guruh bitiruvchisi To'ychiyeva Shahnoza  
Isoqovnaning **“O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid  
siyosati”**

mavzusidagi

# Bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar: Tarix fanlari nomzodi, dotsent R. Arslonzoda

Farg'ona-2012

Bitiruv malakaviy ish kafedraning \_\_\_\_\_ yil \_\_\_\_\_ yig'ilishida  
muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

H. Rahmatullayev

Ilmiy rahbar:

t. f. n. dot. R. Arslonzoda

Taqrizchi:

t. f. n. dot. A. Komilov

# MUNDARIJA

**Kirish**.....

## **I bob. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid siyosat asoslarining ishlab chiqilishi**

- 1.1 Yoshlarning mustaqil O'zbekiston Respublikadining ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy hayotida tutgan o'rni.....
- 1.2 Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yoshlarga oid siyosat asoslarining ishlab chiqilishi.....
- 1.3 Yoshlarga oid siyosatning maqsad va vazifalari.....

## **II bob. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid siyosatning hayotga tadbiiq etilishi**

- 2.1 Yoshlarni huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilish.....
- 2.2 Yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar.....
- 2.3 Davlatning yoshlar tadbirkorligini qo'llab – quvvatlashi.....

**Xulosa**.....

**Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati**.....

## **Kirish.**

**Mavzuning dolzarbligi** Davlatimiz tomonidan tanlangan yo'lining o'ziga xos xususiyatlari ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarni amalgam oshirish modelida, yangilanishlar jarayonida madaniy-ma'naviy qadriyatlarga, tarixiy o'tmishga, qadimiy va milliy merosga tayanishtamoyilida, islohotlar jarayonida umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligiga erishishga intilishda nanoyon bo'lmoqda.

Ushbu vazifalarni izchillik bilan amalgam oshirishda birinchi kundan boshlab yosh avlodga tayanildi. Ularning intilish va harakatlariga imkon berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta'kiidlaganidek, "Biz mutlaqo yangi tuzum va davlatning yangi modelini yaratamiz, bizga shu modelga hayot baxsh etadigan kishilar kerak...Biz hozirgi og'ir damlarni bartaraf eta oladigan yosh avlodga tayanamiz. Biz ular uchun barcha yo'llarni ochib beramiz, ularning ish harakatlari uchunto'la imkon beramiz"<sup>1</sup>

Shu fikrning o'zi nazarimizda, mustaqilligimizning birinchi kunlaridanoq davlatning yoshlarga oid siyosatga qanchalik e'tibor bilan qaraganini ko'rsatadi. Alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston tanlagan taraqqiyot modeliga yoshlar siyosati masalasi davlat darajasiga ko'tarildi. Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

-Mustaqil davlatimiz o'zining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotini o'sib kelayotgan avlod – yoshlar bilan bog'laydi. Ayni damda Respublika aholisining 64foizini yoshlar tashkil etadi. Bundan tashqari aholi sonining yildan yilga ortib borayotganini inobatga olsak, aholi tarkibida yoshlar ulushi ko'payib borishi va, o'z navbatida, ijtimoiy-demografik guruh sifatida yoshlarning muammolari paydo bo'lishi tabiiy holdir;

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- Toshkent: "O'zbekiston", 1997. 173-174-betlar

-Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan, uning yutuqlarining kelajakdagi mevasini tatiydigan yoki tasarruf etadigan avlod hozirgi yoshlardir. Shuning uchun ham istiqbolning ilk kunlaridan boshlangan islohotlarning taqdiri, ezgu sa'y-harakatlarning istiqboli aynan yoshlarning qanday qilib tarbiya topishi, voyaga yetishi bilan bog'liq;

-Yangi tuzumga o'tish jarayonida hali hayotiy tajribasi va tayyorgarligi bo'lmagan yoshlar boshqalarga nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga ko'proq duch kelishlari tabiiy holdir.

Yuqorida qayd qilingan vazifalar davlat tomonidan demokratik islohatlar davri uchun ilmiy asoslangan yoshlarga doir siyosat konsepsiyasini shakllantirish va uni amalgam oshirishni taqozo etdi.

Shu munosabat bilan Respublikamizda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari orasida birinchilardan bo'lib 1991 yil 20 noyabrda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu huquqiy hujjat bosh islohotchi bo'lgan davlatning yoshlar masalasiga doir asosiy strategik yo'nalishlarini izchil va tizimli ravishda bosqichma-bosqich amalgam oshirish imkoniyatlarini berdi. <sup>1</sup>

Davlat darajasida yoshlar siyosatini amalgam oshirishga bo'lgan ob'yektiv ehtiyoj va real zaruratni taqozo etgan yana bir jihat siyosiy jarayonlar bilan bog'liq. Bu jarayonlar ko'p jihatdan islohotlarning yo'nalishlari va sur'atlarini, ijtimoiy va milliy taraqqiyotning jo'shqinlashuv va baqarorlashuv holatlarini, aholining ijtimoiy siyosiy faollashuv darajasini belgilab beradi. Shu munosabat bilan siyosiy jarayonlarni amalgam oshirishda, bosqichma-bosqich ijtimoiy siyosiy islohotlar o'tgazishda yoshlarga katta e'tibor qaratildi. Eng muhimi, ularning siyosiy jarayonlarga ongli darajada kirishishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.

Prezidentimiz I. A. Karimov: "Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rtaga qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni, bu

---

<sup>1 2</sup>"O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 20.11.1991. № 429-XII

narsa ularning sobitqadam, g'ayrat-shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir" – deb ta'kidlagan edilar.

**Mavzuning ilmiy jihatdan o'rganilish darajasi.** O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yoshlarga doir siyosatning mazmun mohiyati o'ziga xos xususiyatlari va asosiy yo'nalishlari hozirgi kunda hayotimizda sodir bo'layotgan voqea hodisalar, yangiliklar va o'zgarishlarda namoyon bo'lmoqda. Bitiruv malakaviy ishining o'rganilish darajasi esa mamlakatimiz rahbarining asarlari, farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qabul qilgan qonun va qarorlari, hayotga tadbiiq etilayotgan dasturlarda o' aksini topgan. Ularni butun ommaga tadbiiq etish esa OAV orqali televideniya, radio, internet, gazeta va jurnallardagi materiallarning e'lon qilish orqali amalgam oshirilmoqda. Shu jumladan, yoshlarga oid davlat siyosatining ijrosini samarali tashkil etish, globallashuv jarayonida yosh avlonning qalbi va ongini yot g'oyalar tasiridan himaya qilish, yoshlarning siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni va rolini yuksaltirish muammolariga bag'ishlangan maqolalar orqali xalqimiz ongiga singdirilmoqda. Turli nashrlar, shu jumladan, Fuqarolik Jamiyati jurnali mualliflaridan Sh. Fayziyev,<sup>1</sup> A. Tadjiyev<sup>2</sup>, S.Zokirov<sup>3</sup>, B. Saidov<sup>4</sup> , D. Ro'ziqulovlar yoshlarga oid davlat siyosatiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar yozib borishadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurulishi akademiyasi hamda "Kamolot" Yoshlar Ijtimoiy Harakati hamkorligida Respublika ilmiy-amaliy konfirensiyasi materiallari to'planib boriladi.

Bitiruv-malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Ishning asosiy maqsadi Prezidentimiz asarlari hamda ma'ruzalarini xalqimiz ongiga singdirish, qabul qilinayotgan dasturlarning hayotga tadbiiq etilishi, yoshlar ongida demokratik

---

1  
2  
3  
4

qadriyatlarni mustahkamlash, yoshlarning siyosiy faolligini oshirish, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishdir. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni bajarish nazarda tutilgan:

- Prezidentimiz asarlari, maruzalari, g'ya va fikrlari, farmonlarini, shu jumladan, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilgan qarorlarini hayotga tadbiiq etilishi va ijrosini o'rganish;

- yoshlarga oid davlat siyosatining maqsad va vazifalarini ochib berish;

- davlatning yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinayotganligini asoslab berish;

- davlatning yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashi sabab va oqibatlarini tushuntirish.

Manbalar tasnifi. Ushbu mavzuni tadqiqot etishda bizga birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, asarlari, maruzalari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari to'plami, bundan tashqari, davriy matbuot materiallari, adabiyotlar hamda internet ma'lumotlariga tayanildi.

Bitiruv-malakaviy ishining nazariy uslubiy asoslari. Bitiruv-malakaviy ishiga istiqloq yillarida shakllangan milliy g'oya va milliy mafkura uslubiy asos qilib olindi. Mavzuni tadqiq etishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, asarlari, maruzalari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari muhim metodologik ahamiyatga ega bo'ldi.

Bitiruv-malakaviy ishining yangiligi va amaliy ahamiyati. BMI ning yangiligi shundan iboratki, davlatning yoshlarga oid siyosati asoslri o'rganib chiqildi. Siyosat asoslarining ishlab chiqilishi va uning hayotga tadbiiq etilishi solishtirib ko'rildi. Mazkur BMI dan kelgusida qilinadigan kattaroq ilmiy tadqiqotlarda foydalanish mumkin. Shuningdek, ushbu materiallardan ilmiy-amaliy konfirensiyalarda va umumta'lim maktablarida otiladigan darslarda, ma'ruza va suhbatlarda foydalanish mumkin.

BMI ning tarkibi. Mazkur bitiruv-malakaviy ishi kirish, 2 ta bob, 6 ta paragraf, xulosa hamda foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I bob. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid siyosat asoslarining ishlab chiqilishi.**

### **1.1 Yoshlarning mustaqil O'zbekiston Respublikadining ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy hayotida tutgan o'rni.**

Mamlakatimizda erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning zamirida, avvalo, har bir inson uchun hech kimdan kam bo'lmagan munosib hayot va turmush sharoitlarini yaratishdek ezgu g'oya mujassamdir. Ayniqsa aholining ko'pchilik qismini ya'ni, 64 foizini tashkil etayotgan yosh avlodni sog'lom va barkamol kamol topishi uchun zarur imkoniyatlar hamda shart- sharoitlarni yaratish , ularni har tomonlama barkamol shaxslar etib shakllantirish jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan vazifa sifatida doimo davlatimiz siyosatining markazida bo'lib kelmoqda. O'ziga xos ijtimoiy guruh sifatida yoshlar jamiyatning kelajagidan dalolat beradi. Chunki, aynan ular yuz berayotgan o'zgarishlarning indikatorlari hisoblanadi va jamiyat rivojlanishining salohiyatini belgilab beradi. Ma'lumki bugungi kunda O'zbekistonda 10 million 360 ming kishi 18 yoshgacha bo'lgan yoshlarni, 17 million 80 ming kishi esa 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni yoki butun aholining 64 foizini tashkil qiladi. Barkamol avlodni voyaga yetkazish borasida respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlarni jamiyatning barcha jabhalarida kuzatish mumkin.<sup>1</sup>

Mamlakatimizda istiqlolning ilk kunlaridan boshlab yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor

---

<sup>1</sup> Ubaydullayev R.A. O'zbekiston yoshlari: ijtimoiy qiyofa. T. 2008. 8-bet

yoʻnalishi sifatida belgilanib, barcha saʼy-harakat va intilishlar, oʻzgarish va yangilanish jarayonlari pirovardi ana shu ezgu maqsadga qaratildi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov bunday siyosatning mazmun-mohiyati haqida toʻxtalib, quyidagilarni taʼkidlagan edi: «Bugungi kunda bir oddiy haqiqat barchamiz uchun ayon boʻlishi kerak: oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz — mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, Oʻzbekiston XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday oʻrin egallashi ham — bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-oʻsib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar boʻlib voyaga yetishiga bogʻliqdir. Bir soʻz bilan aytganda, bizning ozod va obod Vatan, fuqarolik jamiyati barpo etish, taraqqiy topgan davlatlar va xalqlar qatoriga koʻtarilishdek ulugʻ maqsadlarimiz, hech shubhasiz, mana shu olijanob vazifani nechogʻli oqilona amalga oshirishimizga bogʻliq ekanini chuqur anglab olishimiz darkor».<sup>1</sup>

Maʼlumki, mamlakatimizda yosh avlodning taʼlim-tarbiyasi, maʼnaviy kamoloti bilan bogʻliq izchil islohotlarning konseptual asoslari Prezidentimiz asarlarida har tomonlama chuqur asoslab berildi va bosqichma-bosqich, qatʼiyat va izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Yurtboshimizning mamlakatimizda yangi mustaqil demokratik davlat barpo etishning milliy-maʼnaviy hamda umumbashariy negizlari keng tahlil etilib, yangi jamiyat qurishning asosiy ustuvor yoʻnalishlari aniq-ravshan belgilab berilgan «Oʻzbekistonning oʻz istiqlol va taraqqiyot yoʻli» asarida nazariy va amaliy ahamiyatga molik shunday muhim xulosalar bayon qilingan edi: «Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qoʻyib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular oʻrtaga qoʻyilgan maqsadlarga erishish oʻzlariga bogʻliq ekanligini, yaʼni bu narsa ularning sobitqadam gʻayrat-shijoatiga, toʻla-toʻkis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bogʻliq ekanligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir».

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yoʻlini qatʼiyat bilan davom ettirishdir. | Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 15 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi maʼruza. Xalq Soʻzi. 2007 yil 8 dekabr.

O'tgan davr mobaynida bevosita davlatimiz rahbarining rahnamoligida yurtimizda yosh avlodning zamonaviy ta'lim-tarbiya olishi, har tomonlama rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Bunda, ayniqsa, Prezidentimiz tomonidan mamlakatimiz ta'lim tizimini, jamiyatimiz oldida turgan ulug'vor vazifalardan kelib chiqqan holda, butunlay yangilash, ta'limning butun qudratini mustaqil demokratik taraqqiyotimiz uchun suyanch bo'ladigan yoshlar manfaatlariga xizmat qildirishga qaratilgan dasturlar kompleksi ishlab chiqilgani va samarali amalga oshirilayotgani, hech shubhasiz, muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Zero, yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda bir oddiy haqiqat barchamiz uchun ayon bo'lishi kerak: oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz – mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashiham – bularning barcha-barchasi, avvalambor yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan farzadlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir"<sup>1</sup>.

Shu asosda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimiz rahbari Islom Karimov boshchiligida ham jismonan, ham mannan barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'lida yo'lida tom ma'noda tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan dunyo jamoatchiligi haqli ravishda e'tirof etayotgan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993 yil 4 martda qabul qilingan Farmoniga muvofiq ta'sis etilgan mustaqil vatanimizning ilk ordeni – "Sog'lom avlod uchun" deb nomlanishi ham istiqloqlarning ilk yillaridan bu masalaga nechog'li ulkan e'tibor qaratilganidan dalolatdir.

Yoshlarimizning jismonan va ma'nnan barkamol avlod etib tarbiyalash borasidagi islohatlar hayotimizning boshqa sohalari bilan uzviy bog'liq holda, tizimli va bosqichma-bosqich tarzda amalgam oshirilmoqda. Mantiqan bir-birini to'ldiruvchi "Inson manfaatlar yili", "Oila yili", "Sog'lom avlod yili", "Onalar va bolalar yili", "Sihat-salomatlik yili" "Homiylar va shifokorlar yili", "Ijtimoiy himoya yili",

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. "Kamolot" yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin! // Vatan ravnaqi uchun barchamiz mas'ulmiz. T.9. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.-B.187.

“Yoshlar yili”, “Barkamol avlod yili”da barkamol avlod tarbiyasi va uning manfaatlarini ta’minlash yuzasidan amalgam oshirilgan keng ko’lamli chora tadbirlar izchil davlat siyosatining amaliy ifodasi hisoblanadi.

Istiqlol yillarida barkamol avlodni voyaga yetkazish maqsadida yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilar ekanmiz bu borada bolalar va yoshlar huquqlarini samarali amalga oshirish va barcha sohalarda himoya qilishga qaratilgan tegishli huquqiy asoslar to’la shakllantirildi. Xususan islohatlarning dastlabki davridayoq voyaga yetmaganlar va yoshlarni yagona mafkura asosida tarbiyalashga xizmat qiluvchi ma’muriy-buyruqbozlik tizimi va uning huquqiy asoslari tugatildi. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “O’zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to’g’risida”gi, “Ta’lim to’g’risida”gi, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to’g’risida”gi, “Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida”gi, “Bola huquqlarining kafolatlari to’g’risida”gi qonunlar, Fuqarolik va Oila kodekslari qabul qilinib, voyaga yetmaganlar va yoshlarni tarbiyalash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning zamon talablariga mos demokratik huquqiy asoslari yaratildi. O’zbekiston Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Bola huquqlari to’g’risidagi, Bolalar mehnatining og’ir shakllarini taqiqlash va yo’q qilishga doir shoshilinch choralar to’g’risidagi konvensiyalar va boshqa bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlarga qo’shildi.<sup>1</sup>

O’zbekiston respublikasi Prezidentining yosh ijodkorlarni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash, ta’lim olayotgan yoshlarni rag’batlantirish, voyaga yetmaganlar o’rtasida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, buning uchun mas’ul davlat idoralari, jamoat tashkilotlari hamda voyaga yetmaganlar ishlari bo’yicha komissialar faoliyatini takomillashtirish, hayotimizda yoshlarning o’z o’rnini topishigako’maklashish, birinchi navbatada, qishloq joylaridagi yigit-qizlarni ish bilan ta’minlash jismoniy tarbiya va sport bilan shug’ullanishi uchun imkoniyat yaratish, farzandlarimizning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish borasida qabul qilingan ko’plab farmon va qarorlari voyaga yetmaganlar va yoshlar manfaatlari sohasidagi huquqiy asoslarni yanada kengaytiradi. Davlatimiz rahbari

---

<sup>1</sup> Fayziyev Sh. Fuqarolik Jamiyati № 1(21) 2010. B.6

Konstitutsiyamizning 15 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan yoshlar siyosatini yanada takomillashtirish taklifini ilgari surarkan, "...farzandlarimizga nafaqat ishonch bildirish, balki ularga o'zini amalda namoyon etishi uchun maydonni kengaytirish kerak"ligini ta'kidladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasida esa, "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari saylash va saylanish huquqiga egadirlar...Saylovlar umumiy, teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lmagan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar", deyilgan.<sup>1</sup> Binobarin yoshlarimizning siyosiy faolligini oshirishda saylovlar muhim o'rin tutadi. Chunki saylovlar davomida yoshlar siyosiy hayotning chinakam sub'yektiga aylanadi. 2009 yilda respublikamizda o'tkaziladigan parlament saylovlarida ilk bor Mustaqillik farzandlari ovoz berdilar. Bu degani yoshlarimizning davlatimiz siyosiy hayotiga kirib borishga tayyor bolganidan dalolat beradi.

2008 yilning "Yoshlar yili" deb e'lon qilinganligisaylovlar davrida asosiy siyosiy kuch hisoblangan siyosiy partiyalarning yoshlarga e'tiborini yanada kuchaytirdi. Masalan Respublikamizda faoliyat yuritgan "Adolat" SDPning 2006-2009 yillarda belgilangan strategik faoliyat yo'nalishlarining "Iqtisodiy islohatlarni izchil davom ettirish va takomillashtirish" bo'limida o'quvchi yoshlar stipendiyalarini o'z vaqtida berilishi bo'yicha zarur huquqiy asoslarni yaratish" masalasiga katta e'tibor qaratilgan. "Yoshlar siyosati" bobida esa yoshlarni mamlakatimiz va jamiyatimizda kechyotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-marifiy islohotlar jarayonigakeng jalb etish partiyaning muhim vazifalaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, unda: yoshlarning zamonaviy ta'lim olish, kasb-hunar egallash, uy-joyga ega bo'lish imkoniyatlarini kengaytirish; oily o'quv yurtlarining eng a'lochi va

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. "Kamolot" yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin! Vatan ravnaqi uchun barchamiz mas'ulmiz. T.9. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.-B.188.

jamoatchi talabalarini kontrakt to'lovidan ozod qilish yoki hayriya tushumlari orqali to'lashning imtiyozli mehanizmini yaratish masalalari o'rin olgan.<sup>2</sup>

Davlatning ertasini o'ylagan partiyalar o'z safiga ko'proq yoshlarni jalb etadi. Chunki yurtning kelajagini hozirda tarbiyalanib borayotgan yoshlar hal qiladi.

## **1.2 Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yoshlarga oid siyosat asoslarining ishlab chiqilishi.**

Jamiyat sivilizatsiyasi uning insonparvar ma'rifiy-tarbiyaviy maqomiga bog'liq. Ana shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, demokratik huquqiy davlat barpo etish, adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishni o'z oldiga konstitutsiyaviy maqsad qilib qo'ygan O'zbekiston istiqlolning dastlabki kunlaridanoq, mutlaqo yangicha mohiyat va mundarijaga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh etishni asosiy vazifa sifatida davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Zotan, zamonaviy dunyoviy tafakkur va bilimgina xalqni, davlatni milliy kamolotning yangicha sifat bosqichiga olib chiqishning yagona kafolatidir. O'zbekistonda yoshlarga oid siyosat asoslari birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab berilgan.

XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11-sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 29, 37, 41, 45, 56, 64, 66-moddalari yoshlarning huquqlarini tartibga solishni kafolatlaydi. Asosiy Qonunning IX bobida O'zbekiston fuqarolarining ijtimoiy huquqlari aniq belgilab berildi. Jumladan, "Konstitutsiyaga ko'ra, demokratik umuminsoniy tamoyillarga asoslangan O'zbekiston Respublikasida inson hayoti, erkinligi, ma'rifati bilan bog'liq daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanib, har kim fikr yuritish va uni ifodalash erkinligiga, o'z istagan axborotini izlash, olish hamda uni tarqatish huquqiga ega" (29-modda).<sup>1</sup>

---

<sup>2</sup> M. Inomjonova Yoshlar va siyosat "Yuksak ma'naviyat- yoshlarga doir siyosat samaradorligini oshirish omili" Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent 2008 79-81 bet

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- Toshkent: "O'zbekiston" Nashriyot- Matbaa ijodiy uyi, 2009, B.7-13.

"Erkin kasb tanlash" (37-modda) huquqiga ega har bir shaxsga "ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi" (42-modda). 41-moddada "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir", deb qayd etilgan.

Konstitutsiyamizning 45-moddasida voyaga yetmaganlar, ishlashga layoqatsizlar va yolg'iz qariyalarning huquqlari davlat himoyasidaligi hamda 56-moddada O'zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, jamoat tashkilotlari, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, fahriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va qonunda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e'tirof etiladi. 64-moddada Ota-onalar o'z bolalarini ular balog'atga yetgunga qadar boqishga va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, ularga nisbatan xayriya faoliyatini rag'batlantiradi.<sup>1</sup>

1991 yil 20 noyabrda O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari to'g'risida" 429-XII-son Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolarga nisbatan tadbiq etiladigan davlat yoshlar siyosatining asosiy qoidalarini belgilab beradi. Qonun asosida, davlat xalq manfaatlarini ko'zlab, "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonunga asoslanib, respublika yoshlarining ijtimoiy hamda ma'naviy kamol topishi uchun shart-sharoit yaratib berishga qaratilgan yoshlarga oid Davlat siyosatini ishlab chiqishi va amalga oshirishi belgilangan. Mazkur qonunga O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 1 maydagi 621-I-son Qonuni, 2004 yil 30 aprel 621-II-son, 2004 yil 3 dekabr 714-II-son, 2008 yil 31 dekabr 197-son Qonuniga muvofiq o'zgartirishlar

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- Toshkent: "O'zbekiston" Nashriyot- Matbaa ijodiy uyi, 2009, B.11.

kiritilgan.<sup>2</sup>

"O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari to'g'risida"gi qonuni 4 bob 21 moddadan iborat bo'lib, umumiy qoidalar, yoshlarni huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilish, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish va yakuniy xulosalarga oid moddalar keltirilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston yoshlar ishlari bo'yicha respublika kengashini tuzish to'g'risida" 1992 yil 4 dekabrda 568-son qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunni amalga kiritish tartibi haqida"gi Qarorini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining yoshlar masalalariga rahbarlik qiluvchi o'rinbosari raisligi ostida O'zbekiston yoshlar ishlari bo'yicha respublika kengashini tuzish haqida qaror qabul qilindi.<sup>1</sup>

Bosqichma-bosqich o'tkazilayotgan bozor islohotlari, ko'lamdor davlat ijtimoiy dasturlarini, jumladan "Sog'lom avlod", "Ona va bola", "Sihat- salomatlik yili", "Ijtimoiy himoya yili", "Yoshlar yili" dasturlarini va boshqalarni amalga oshirish tufayli mamlakatda insonning, avvalo, bolalar, ayollar, yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy huquqlarini har tomonlama himoya qilish, ularning har tomonlama uyg'un rivojlanishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 fevraldagi 46-son Qaroriga 1-ilova. "Sog'lom avlod" davlat dasturi. Mazkur Dasturga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 30 dekabrda 455-son Qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan. Dastur sog'lom avlodni tarbiyalash va yoshlar o'rtasida tibbiy, gigiena bilimlari masalalari bo'yicha yoshlarning xabardorligini oshirishga; sog'lom turmush tarzi qoidalarini shakillantirishga, sanitariya madaniyati uchun jamoatchilik harakatini faollashtirishga, zararli odatlarni bartaraf qilishga; o'sib kelayotgan avlod va

---

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonuni. 20.11.1991. № 429-XII

<sup>1</sup> Ubaydullayev R.A. O'zbekiston yoshlari: ijtimoiy qiyofa. T. 2008. B.91.

yoshlarning jismoniy, ma'naviy-axloqiy, ijodiy, vatanparvarona rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishga; yoshlarni harbiy-sport tayyorgarligiga; yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni yaxshilashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 fevraldagi 46-son Qaroriga 1-ilova. "Sog'lom avlod" davlat dasturi. Mazkur Dasturga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 30 dekabrda 455-son Qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan. Dastur sog'lom avlodni tarbiyalash va yoshlar o'rtasida tibbiy, gigiena bilimlari masalalari bo'yicha yoshlarning xabardorligini oshirishga; sog'lom turmush tarzi qoidalarini shakillantirishga, sanitariya madaniyati uchun jamoatchilik harakatini faollashtirishga, zararli odatlarni bartaraf qilishga; o'sib kelayotgan avlod va yoshlarning jismoniy, ma'naviy-axloqiy, ijodiy, vatanparvarona rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishga; yoshlarni harbiy-sport tayyorgarligiga; yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni yaxshilashga qaratilgan.<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 25 yanvardagi 30-son qaroriga 1-ilova "Sihat-salomatlik yili" davlat dasturi" sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishni, yoshni estetik tarbiyalashni, yoshlarning atrof-muhitni qo'riqlashga qaratilgan ijtimoiy faolligini rag'batlantirishni, o'quvchi yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga keng jalb qilishni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijtimoiy himoya yili" davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha tashkiliy choralar to'g'risida" 2006 yil 12 dekabrda F-2632-son Farmoyishi jismoniy sog'lom, ma'naviy boy avlodni shakillantirish, onalik va bolalik haqida g'amxo'rlikni kuchaytirish, "Sog'lom onadan sog'lom bola"; yoshlarning qobiliyatlari va salohiyatlarini namoyon qilishlari uchun sharoitlar yaratish; yosh oilalarga imtiyozli kreditlar berish bo'yicha chora-tadbirlarni yanada kengaytirishni nazarda tutadi.<sup>2</sup>

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishga qaratilgan davlat siyosatining

---

<sup>1</sup> Ubaydullayev R.A. O'zbekiston yoshlari: ijtimoiy qiyofa. T. 2008. B.106.

<sup>2</sup> O'sha joyda. B.114.

evolyutsion tizimida 2008 yilning Yoshlar yili deb e'lon qilinishi va shu munosabat bilan «Yoshlar yili» Davlat dasturining amalga oshirilishi tom ma'noda tarixiy ahamiyatga molik voqea bo'ldi. Mazkur Dastur natijasida, mamlakatimiz yoshlarining har tomonlama kamol topishi, o'z iste'dod va qobiliyati, bilim va kuch-g'ayratini namoyon etishi, bugungi va ertangi hayotimizning hal qiluvchi kuchiga aylanishi uchun yangi-yangi imkoniyatlar yaratildi.

«Yoshlar yili» Davlat dasturining amalga oshirilishi yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik siyosatining yana bir yorqin amaliy namoyoni bo'lganini barchamiz kundalik hayotdagi ko'plab imkoniyat va yangiliklar misolida guvohi bo'ldik. Hammamizga yaxshi ayonki, har qanday jamiyat taraqqiyot yo'lidan og'ishmay ilgari lab borgani sari bu taraqqiyotni ta'minlab, unga yangicha kuch va quvvat beradigan, zamonaviy fikrlaydigan, har tomonlama bilimli va aqlli yosh kadrlarga bo'lgan talab va ehtiyoj ham muttasil ortib boraveradi. Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlikning uzviy davom etayotganini ko'rganda, bu siyosat zamirida ana shu haqiqatni har tomonlama chuqur anglab, uzoqni ko'zlab ish yuritish tamoyili mujassam ekaniga ishonch hosil qilamiz.

«Barkamol avlod yili» Davlat dasturining tub mohiyati, konseptual asoslari davlatimiz rahbarining Konstitutsiyamizning 17 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan tantanali yig'ilishda so'zlagan ma'ruzasida har tomonlama chuqur bayon qilib berildi. Prezidentimiz qabul qilinajak yangi davlat dasturi o'ziga qamrab oladigan asosiy strategik vazifalar qatoriga birinchi navbatda yoshlar manfaatining to'laqonli ravishda ta'minlanashiga yanada samarali xizmat qiladigan, zamon talablari darajasida yangi huquqiy bazani rivojlantirish, mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan aholini sog'lomlashtirish, ayniqsa, onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash borasidagi chora va tadbirlarni yanada kuchaytirish, bu sohaga jalb qilinayotgan mablag'larni keskin oshirish bilan bog'liq masalalar kiritilishi lozimligiga alohida e'tibor qaratdi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> M. Inomjonova Yoshlar va siyosat "Yuksak ma'naviyat- yoshlarga doir siyosat samaradorligini oshirish omili" Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent 2008 79-81 bet

Nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari, harbiy qudrati, ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki, birinchi navbatda, o'zining yuksak aqliy-ilmiy intellektual qudrati bilan kuchli bo'lishi muqarrarligini teran anglab etgan davlatimiz bosh islohotchi sifatida ta'lim-tarbiya tizimi va mazmun-mundarijasini tubdan yangilash jamiyat hayotining barcha sohalarini o'zgartirishning yagona omili, deb bildi. Yo'lboshchimiz so'zlari bilan aytganda, "islohotlarning taqdiri va samarasi, birinchi navbatda, kadrlarning saviyasiga, ularning zamon va taraqqiyot talablariga nechog'lik javob berishiga taqalib qolar edi. Yurtimizning ertangi hayoti va taqdiri, avvalambor, shu muammolarni uzil-kesil yechish bilan chambarchas bog'langanligini har qaysi fikrlovchi odam anglashi qiyin emas. Shu sababli ham biz nihoyatda murakkab, ko'p vaqt va ko'p mablag' talab etadigan ana shu vazifani ado etishga kirishdik".<sup>1</sup> Ushbu vazifaning dastlabki amaliy ijrosi O'zbekiston Respublikasining qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi birinchi qonun ijodkorligidan boshlanadi. Qonun, avvalo, milliy ta'lim tizimida ilgari mavjud ijobiy jihatlarni va yangi istiqloq davrida jamiyatni ma'rifiy-tarbiyaviy bo'shliqdan omon saqlab qoldi. Ta'lim-tarbiya sohasida vujudga kelishi muqarrar ma'rifiy-g'oyaviy bo'shliqning qanday salbiy oqibatlarga olib kelishini yosh O'zbekiston jamiyati juda teran his qilib, anglab yetgan edi. Ana shu xavfning oldi olinganligi dastlabki qonunning ahamiyatini favqulodda oshirib yubordi. Ayni paytda, qonun sobiq totalitar mafkura sarqitlarini ko'rsatib, illatlarni anglab olishimizga va shular orqali eski tuzumdan yangi demokratik tuzumga o'tishning ma'rifiy-g'oyaviy ko'prigiga aylandi. Eng muhimi — qonun yaratgan huquqiy-amaliy imkoniyatlar o'laroq, ta'lim tizimiga qator jiddiy yangiliklar, qo'shimchalar kirib keldi. Jumladan, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga kirishning test tizimi joriy etildi, eski dunyodan meros tanish-bilishchilik, poraxo'rlik, adolatsizlikka chek qo'yildi. Davlatga, adolatga ishonch yuzaga keldi. Ta'lim tizimida adolat o'rnatildi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladigan bo'ldi:

---

<sup>1</sup> G'ulomov S. Kuch- bilim va tafakkurda. Toshkent. 2002.B14-15.

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim.

*O'zbekiston Respublikasiniyag "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, 10-modda*

Milliy istiqlol taraqqiyoti ta'lim-tarbiya sohasida yanada jiddiy yangilanishlar qilinishini taqozo eta boshladi. Ana shu ijtimoiy talab o'laroq, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun 1997 yilda yangi tahrirda qabul qilindi. Qonunning o'ziga hos mantiqiy-amaliy davomi sifatida "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ishlab chiqildi. Ushbu qonunlar fuqarolarga ta'lim berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilab, har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonun bilan "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" mantiqiy uzviy yaxlitlikning bir butun mushtarak mundarijasidir. Dastur bevosita qonunning ijrosi, shakli, vositasi hamda usullarining yig'ma amaliy-tashkiliy majmui bo'lib, ular yaxlit holda ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlarini, tamoyillarini, talab hamda maqsadlarini, muammoning yechimi bilan bog'liq rejalarni aniqlab berdi.<sup>1</sup>

Besh bo'lim, 34 moddadan iborat "Ta'lim to'g'risida"gi qonun O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy ma'rifiy salohiyati, umuminsoniy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etishning yaxlit qoidasiga aylandi. Qonunning bosh maqsadi — "... fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlaydi" (1-modda).<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup> G'ulomov S. Kuch- bilim va tafakkurda. Toshkent. 2002.B. 17.

<sup>2</sup> O'sha joyda. B.17.

Ijtimoiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishi bo'lmish ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari quyidagicha belgilandi:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar demokrati xususiyatda ekailigi;*
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;*
- umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;*
- o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limining yo'nalishi — akademik litseyda yoki kasb-xunar killejida o'qishni tan-lashning ixtiyoriyligi;*
- ta'lim tizimining dunyoviy hususiyatda ekanligi;*
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;*
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;*
- bilimli bo'lishni va iste'dodni ragbatlantirish;*
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish (3-modda).*

Qonunda bilim olish, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqlari, ta'lim muassasasining huquqiy maqomi, davlat ta'lim standartlarida (umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim) aniq belgilab berilgan (4-7-moddalar).<sup>1</sup>

Ta'lim tizimi va turlari qonunda "O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir" (9-modda), degan tamoyilga asoslangan. Davlat ta'lim standartlaridan tashqari oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim (15-modda), kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash (16-modda), maktabdan tashqari ta'lim (17-modda), oiladagi ta'lim va mustaqil ravishda ta'lim olish (18-modda) masalalari qonunda qat'iy belgilangan. Qonunning insonparvar maqomi ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilishning (III bo'lim, 20-24-moddalar) huquqiy asoslarida o'z ifodasini topgan.

Ta'lim-tarbiya tizimi islohotlarining pirovard samarasi bevosita ta'lim tizimining boshqaruviga bog'liq. O'zbe-kiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari aniq belgilab berilgan (25-modda). Qonunda ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquq doirasiga kiruvchi vazifalar (26-modda), mahalliy davlat hokimiyati organlarining

---

<sup>1</sup> G'ulomov S. Kuch- bilim va tafakkurda. Toshkent. 2002.B. 18.

ta'lim sohasidagi vakolatlari (27-modda), shuningdek, ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari bilan nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar (29-modda) o'z ifodasini topgan.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonun bilan bir vaqtda, 1997 yil 29 avgustda, 5 bo'limdan iborat "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi qonun ham qabul qilindi. Buning sababi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning amaliy-tashkiliy ijrosini aniq dastur asosida to'liq ta'minlashdan iborat. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning umumiy o'rta ta'lim olishga, uch yillik akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlarida o'qishga hamda oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga taalluqli 12-, 13- va 14-moddalaridagi qoidalar Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida belgilangan muddatlarda joriy etilishi ko'zda tutilgan.

Ana shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Milliy dasturni bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarish yuzasidan kompleks tadbirlar rejasini ishlab chiqib, amalga oshira boshladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturining hayotimizga chuqur tatbiq etilayotgani yoshlarimizga ta'lim-tarbiya berish, kasb-xunar o'rgatish, ularni ish bilan ta'minlash, sog'ligini asrab-avaylash, ma'naviyatini yuksaltirish, qobiliyati va iqtidorini rivojlantirishda muhim omil bo'lmoqda. Ushbu dasturlar doirasida yangi ta'lim maskanlari bunyod etilib, zamonaviy mebel, o'quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlandi, ularda kompyuter sinflari va lingafon xonalari, sport infratuzilmalari tashkil etildi.

Tarbiya sohasida bosqichma-bosqich islohotlar tamoyili qonunlarning bosh huquqiy-amaliy sharti sifatida tub yangilanishning bir-birining uzviy mantiqiy-tashkiliy davomi bo'lmish uch bosqichini belgilab berdi.

Birinchi bosqich 1997-2001 yillarda amalga oshirilgan islohotlar tizimi bilan bog'liq bo'ldi va u Milliy dasturda rasman o'tish davri, deb baholandi.<sup>1</sup>

Bosqichda ta'lim tizimi salohiyati saqlanib qolingan holda, avvalo, uning

---

<sup>1</sup> G'ulomov S. Kuch- bilim va tafakkurda. Toshkent. 2002.B. 20.

amaliy-tashkiliy takomili bilan bog'liq konstitutsiyaviy va huquqiy-me'yoriy zamin yaratilib, ilmiy-uslubiy, moddiy-moliyaviy shart-sharoitlari mustahkamlandi. Natijada, birinchi bosqichda belgilangan quyidagi vazifalar ijrosi to'la ta'minlanildi:

-Milliy dastur ijrosi samarali boshlab yuborildi;

-yangicha talablarga javob beradigan pedagogik kadrlar tayyorlana boshlandi;

-o'quv standartlari yaratilib. yangi o'quv dasturlari ishlab chiqildi;

-umumta'lim maktablari qaytadan tuzildi, uch yillik ta'lim o'rta maxsus va kasb-hunar kollejlari, akademik litsey tizimiga o'tilib, uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimi shakllandi;

-ta'lim-tarbiya bilan bog'liq ijtimoiy himoya rasman kafolatlandi, davlat va jamiyat kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning kafolatiga aylandi va h.k

Ta'lim-tarbiya tizimi islohining 2001-2005 yillarga mo'ljallangan hozirgi ikkinchi bosqichida, qonunlarga ko'ra, Milliy dasturni keng miqyosda to'liq amalga oshirish bilan bog'liq vazifalar belgilandi. Ayni paytda, aniq ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdan, hususan, mehnat bozori talablaridan kelib chiqilgani holda, tizim faoliyatining yanada samarali bo'lishini ta'minlashga safarbar bo'lishi muqarrar yangi-yangi g'oyalar hamda qoidalar asosida bosqich bilan bog'liq jarayonlarga tegishli zarur o'zgarishlar, kerak bo'lsa, qo'shimchalar kiritish ko'zda tutilgan.<sup>1</sup>

2005 va keyingi yillarga mo'ljallangan uchinchi bosqich mohiyatan ta'lim-tarbiya tizimi tashkiliy-amaliy islohot-larining o'ziga xos yakuniy bosqichi, mavjud ilg'or va istiqbolli tajribalarning tahliliy-tashkiliy umumlashmasi sifatida islohiy jarayonlarni yangi sifat darajasiga ko'tarish, yanada takomillashtirish bosqichiga aylanish bo'ldi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2004 yil 21 maydagi "2004-2009

---

<sup>1</sup> G'ulomov S. Kuch- bilim va tafakkurda. Toshkent. 2002.B. 21.

yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalgam oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Yalpi umumma'rifiy, umumma'naviy va umummadaniy yuksalishga, zamonaviy jahoniy bilim hamda tafakkur tarbiyasi shakllanishiga, "Kuch — bilim va tafakkurda" tamoyilining to'liq amal qilishiga erishiladigan bu bosqichda k'omil va fozil insonning jamiyatda o'z munosib o'rnini to-pishi tahminlanishi, muhimi — «Biz hech kimdan kam emasmiz, biz hech kimdan kam bo'lmaymiz» tamoyilining amaliy ifodasi ko'zda tutilgan.

O'qish muddati 3 yildan kam bo'lmagan akademik hamda kasb-hunar litseylari, kollejlari o'rta maxsus bilim va kasb-hunar ta'limi tizimiga kiritildi. To'rt yildan kam bo'lmagan muddatda davom etadigan oliy mutaxassislik ta'limi Milliy dasturda bakalavrluk va magistratura yo'nalishlarida belgilandi. Bakalavrluk yo'nalishi bazaviy oliy ta'lim berib, to'rt yil muddatda talabaga oliy ma'lumot va tayanch mutaxassislik diplomi beriladi. Bakalavrluk negizida o'qish ikki yil davom etadigan magistratura aniq, mutaxassislik bo'yicha yakuniy kvalifikatsion davlat attestatsiyasi va magistrlik dissertatsiyasi himoyasi bilan yakun topuvchi oliy kasbiy ta'lim beradi.

Ayni paytda, milliy dasturda uzluksiz ta'limning rasmiy tizimida ikki daraja, ya'ni aspirantura va doktoranturadan iborat quyidagi yakunlovchi bosqich joriy etildi.

Nihoyasiga yetkazilgan magistrlik negizida uch yil davom etadigan aspiranturadan maqsad — muayyan mutaxassisliklar bo'yicha oliy kvalifikatsiyali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni shakllantirish. Aspirantura akademik va kvalifikatsion imtihonlari hamda nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilish bilan yakunlanadi. Bu yakunlarga ko'ra tanlangan mutaxassislik bo'yicha "Fan nomzodi" ilmiy darajasi beriladi.<sup>1</sup>

Doktorantura — fan nomzodi ilmiy darajasi negizida 3 yil davom etadi, dissertatsiya himoya qilish bilan yakunlanadi. Yakupga ko'ra tanlangan mutaxassislik bo'yicha "Fan doktori" ilmiy darajasi beriladi. Boshqacha aytganda,

---

<sup>1</sup> G'ulomov S. Kuch- bilim va tafakkurda. Toshkent. 2002.B. 24.

bu sohada avvalgi tartib saqlanib qoladi.<sup>2</sup>

Bulardan tashqari, qonunlarga asosan, yangi tizimda qo'shimcha kasbiy ta'lim — qayta tayyorlash va malaka oshirish malakasiga ham katta e'tibor berila boshlandi.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ko'zda tutilgan bilim berish va kasb-hunar o'rgatish bilan bog'liq uch yillik ta'limning mazmun-mohiyati tayanch umumta'lim bosqichini tugatgan o'quvchiga o'z hohish-irodasi va intilishiga ko'ra ikki turdagi uch yillik o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'limni majburiy-ixtiyoriy davom ettirishning huquqiy imkonini beradi. 1997 yil 30 dekabrda Vazirlar Mahkamasining "Ustoz" respublika jamg'armasi faoliyatini ta'minlash to'g'risida"gi 576-sonli qarori chiqdi. Qarorda qayd etilganidek, "umumta'lim muassasalari, birinchi navbatda, oliy ta'lim muassasalari professor-pedagog xodimlari safidan yuqori malakali o'qituvchilar tayyorlash, ularning rivojlangan, demokratik xorijiy mamlakatlar ta'limidagi ijobiy tajribalarni o'rganishlarini, o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari bilan tanishishlarini va chet ellarda tajriba orttirishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Ustoz" respublika jamg'armasi tashkil etilib, Nizomi qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtidorli yoshlarning chet elda bilim olishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha "Umid" jamgarmasini tashkil etish to'g'risida" 1997 yil 7 yanvardagi PF-1694-son Farmoni qabul qilindi. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari uchun yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlash jamgarma faoliyatining asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Iqtidorli yoshlarni tanlash va chet elda o'qitish har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining grant tanlovlari asosida amalga oshiriladi.<sup>1</sup>

1998 yil 5 yanvarda Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida"gi 5-sonli qarori chiqdi. Unda ta'lim to'g'risidagi qonunlar ijrosi bilan bog'liq tub islohiy

---

<sup>2</sup> O'sha joyda.B.24.

<sup>1</sup> Ubaydullayev R.A. O'zbekiston yoshlari: ijtimoiy qiyofa. T. 2008. B.99.

jarayonlarni yanada chuqurlashtirish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy yangilanishlar talablariga, shuningdek, ta'lim, fan-texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg'or jahon darajasiga muvofiqligini ta'minlash chora-tadbirlari belgilangan. Qaror ijrosi yuzasidan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 7-sonli buyruq tayyorladi (1998 yil 12 yanvar). Unda vazirlikning qarorda belgilangan vazifalarni bajarish bilan bevosita bog'liq chora-tadbirlar majmui ishlab chiqildi. Buyruqda "Davlat ta'lim standartlari to'g'risida"gi Nizom qabul qilinib, ta'lim muassasalari Nizomini ishlab chiqish tartibi tasdiqlandi.

Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 28 yanvarda "Ta'lim xizmatlari ko'rsatish bozorini shakllantirish va kadrlar tayyorlash sohasida marketingni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorga binoan, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida marketing xizmati tashkil etildi. Xuddi shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida marketing xizmati bo'limlari vujudga keldi.

Ta'lim marketingi respublikamizning iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarida oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan talab va ehtiyojini o'rganadi. Ular to'plagan ma'lumot, olib borgan kuzatishlar va chiqargan xulosalar asosida hozirgi kunda hamda istiqbolda malakali kadrlarga buyurtmalarning ko'rsatkichlari belgilanadi. Ularning xulosalari har yili oliy o'quv yurtlariga qabul ko'rsatkichlarining loyihasini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida, jumladan, ta'lim xizmatlari bozorini shakllantirish va rivojlantirish kadrlar tayyorlash sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki kadrlarning zamon talabiga javob bera olishi ta'lim bozori-ning mezoniga aylanadi. Kadrlar kuchli raqobat sharoitiga duch keladi, shunday mezon asosida ular saralanadi, eng kuchlilar, eng yetuk kadrlargina hayotda mustahkam o'z o'rnini topa oladilar.

Bugungi kunda oliy o'quv yurtlarining o'zida tashkil topgan marketing xizmati bo'limlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklangan. Ular oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish borasida faoliyat olib boradi.

Istiqlol yillarida barkamol avlodni voyaga yetkazish maqsadida yurtimizda amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilar ekanmiz, bu borada bolalar va yoshlar

huquqlarini samarali amalga oshirish va barcha sohalarda himoya qilishga qaratilgan tegishli huquqiy asoslar to'la shakllantirilganligini qayd etishimiz lozim. Xususan, islohotlarning dastlabki davridayoq voyaga yetmaganlar va yoshlarni yagona mafkura asosida tarbiyalashga xizmat qiluvchi eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va uning huquqiy asoslari tugatildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi, "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar, Fuqarolik va Oila kodekslari qabul qilinib, voyaga etmaganlar va yoshlarni tarbiyalash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning zamon talablariga mos demokratik huquqiy asoslari yaratildi. O'zbekiston Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Bola huquqlari to'g'risidagi, Bolalar mehnatining ogir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi konventsiyalar va boshqa bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlarga qo'shildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston yoshlar ishlari bo'yicha respublika kengashini tuzish to'g'risida" 1992 yil 4 dekabrda 568-son qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining "O'zbekiston Respublikasida davlat yoshlar siyosatining asoslari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunni amalga kiritish tartibi haqida"gi Qarorini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining yoshlar masalalariga rahbarlik qiluvchi o'rinbosari raisligi ostida O'zbekiston yoshlar ishlari bo'yicha respublika kengashini tuzish haqida qaror qabul qilindi.<sup>1</sup>

Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston yoshlarini xorijiy mamlakatlarga o'qishga yuborish to'g'risida" 1992 yil 20 iyuldagi 334-son qarorida davlat organlari tuzadigan bitimlar va shartnomalarga muvofiq xorijiy mamlakatlarga o'qishga boruvchi shaxslarga o'qishga borish va vataniga qaytib kelish, shuningdek ta'til davrida, xarajatlari tegishli vazirliklar va idoralar hisobidan to'lanishi belgilangan.

---

<sup>1</sup> Ubaydullayev R.A. O'zbekiston yoshlari: ijtimoiy qiyofa. T. 2008. B.91.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston ijodkor yoshlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" 1992 yil 28 avgustdagi PF-461-son Farmonida respublika ijodkor yoshlarining eng muxtoj qismiga uy-joy berish; yosh ijodkorlarning eng yaxshi asarlari va ilmiy ishlanmalari uchun davlat mukofotini ta'sis etish, respublika maktab olimpiadalari, xalqaro va respublika tanlovlari g'oliblarini mutaxassislikka mos oliy o'quv yurtlariga imtihonsiz qabul qilish; chet ellarga o'qishga va malaka oshirishga yuborish nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentyabrdagi 2012-XII-son Qonuni bilan tasdiqlangan va 1995 yil 1 aprelda amalga kiritilgan. Jinoyat Kodeksining 5-bobi oila, yoshlar manfaatlarini va ahloqni himoya qilishga bag'ishlangan.

122-modda – balog'atga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni boqishdan bosh tortish eng kam ish haqi miqdorining ellik baravarigacha jarima solish yoki uch yilgacha ahloq tuzatish ishlari, yohud 6 oygacha qamash bilan jazolanadi.

123-modda - mehnatga layoqatsiz va moddiy yordamga muhtoj ota-onalarni ta'minlashdan bo'yin tovlash oldingi moddadagi kabi jazoga tortiladi.

127-modda – balog'atga yetmagan shaxslarni tilamchilikka, spirtli ichimliklar, narkotik yoki psixotrop bo'lgan moddalar yoki vositalarni iste'mol qilishga jalb etish 2 yilgacha ahloq tuzatish ishlari yoki 3 oygacha hibsga olish, yohud 3 yilgacha ozodlikdan marhum qilish bilan jazolanadi.<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentyabrdagi 2015-XII-son bilan Qonuni tasdiqlangan "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksi 1995 yil 1 apreldan amalga kiritilgan. 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan, ma'muriy huquqbuzarliklar sodir qilgan shaxslarga balog'atga yetmagan yoshlar ishlari bo'yicha komissiyalar to'g'risidagi nizomda ko'zda tutilgan choralar qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 25 dekabr qonuni bilan

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentyabrdagi 2012-XII-son Qonuni.

tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi" 1996 yil 1 aprelda amalga kiritilgan. Yoshlarga tegishli, moddalar:

52, 68-moddalar – ta'lim muassasalarini bitirgan yoshlar uchun qo'shimcha ishchi o'rinlari yaratgan korxonalariga imtiyozlarni nazarda tutadi.

52-modda - nogironlar va yoshlar (jumladan 18 yoshga to'lmagan shaxslar) mehnatidan foydalanib, qo'shimcha ishchi o'rinlari yaratadigan korxonalariga imtiyozlar;

68-modda - aholining ayrim toifalariga ishga joylashish bo'yicha qo'shimcha kafolatlar. Davlat ta'lim muassasalarini tugallagan yoshlarga qo'shimcha ishchi o'rinlari, maxsuslashtirilgan korxonalar, jumladan, nogironlarning mehnati uchun korxonalar tashkil etish, maxsus ta'lim dasturlarini uyushtirish, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga ko'rsatilgan toifalardagi fuqarolarni ishga joylashtirish uchun eng kam ish o'rinlari sonini belgilash, shuningdek, qonunchilikda belgilangan boshqa choralar yo'li bilan qo'shimcha kafolatlarni ta'minlaydi.

77-modda - ishlashga ruxsat etiladigan yosh. Ishlashga o'n olti yoshdan ruxsat etiladi. O'n besh yoshga etgan shaxslar ota-onalardan birining yoki ularni o'rnini bosuvchi shaxsning yozma ravishdagi roziligi bilan ishga qabul qilinishlari mumkin. Yoshlarni mehnatga tayyorlash uchun umumta'lim maktablarining, hunar-tehnika bilim yurtlarining, o'rta o'quv yurtlarining o'quvchilari ularning salomatligiga va rivojlanishiga zarar keltirmaydigan, ta'im jarayonini buzmaydigan ishlarni bajarish uchun o'qishdan bo'sh vaqtlarida, ular basharti 14 yoshga to'lgan bo'lsalar, ota-onalardan birining yoki uni o'rnini bosuvchi shaxsning yozma roziligi bilan ishga qabul qilinadilar.<sup>1</sup>

239, 240, 241, 242, 243, 244, 245, 246-moddalarda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlarni ishga qabul qilishdagi kafolatlar nazarda tutiladi; 248, 249, 250, 251, 252, 253, 254, 255, 256, 257, 258-moddalar ishlab turib o'qiydigan shaxslar uchun imtiyozlarni nazarda tutadi

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksi 1994 yil 22 sentyabrdagi 2015-XII-son bilan Qonuni tasdiqlangan".

O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrda 163-1-son va 1996 yil 29 avgustda 226-1-son Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi 1997 yil 1 martdan amalga kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq har bir kishining o'z huquq va erkinliklarini sudga himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar va jamoat birlashmalarining noqonuniy harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

27-moddada 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan balog'tga yetmagan bolalarning ota-onalar, farzandlikka olganlar va vasiylar roziligisiz o'z ish haqlari, stipendiyalari va boshqa daromadlarini mustaqil tasarruf etishlari; fan, adabiyot, san'at asarlari va qonun bilan boshqacha qo'riqlanadigan O'z intellektual faoliyati natijalari muallifi huquqini amalga oshirishlari; mazkur Kodeks 29-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan mayda maishiy bitimlarni va boshqa bitimlarni tuzishlari belgilangan. 29-modda - o'n to'rt yoshga to'lmagan balog'atga yetmagan (kichik yoshlilar) bolalar uchun bitimlarni ularning nomidan faqat ota-onalar, farzandlikka olgan kimsalar yoki vasiylar amalga oshirishlari mumkin (notarial tartibda tasdiqlash talab qilinmaydigan tekin foyda olishga qaratilgan bitimlardan tashqari).<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 aprelda 607-1-son Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi 1998 yil 1 sentyabrdan amalga kiritilgan. 15-moddada nikohga kirish yoshi erkaklar uchun 18 yosh, qizlar uchun 17 yosh qilib belgilangan. Uzrli sabablar bo'lgan holda nikohga kirish yoshi bir yildan ko'p bo'lmagan muddatga pasaytirilishi mumkin. 96-moddada balog'atga yetmagan bolalarini boqish majburiyatini ixtiyoriy bajarmagan ota-onalardan sud qarori yoki sud amri bo'yicha aliment undirilishi nazarda tutilgan Mazkur qonun hujjatlarning amalga oshirilishi natijasida sog'lom va barkamol avlodni kamol toptirishning zarur tashkiliy asoslari ham yaratildi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrda 163-1-son va 1996 yil 29 avgustda 226-1-son Qonuni.

### **1.3 Yoshlarga oid siyosatning maqsad va vazifalari.**

1991 yil 20 noyabrda O'zbekiston Respublikasining qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari to'g'risida" 429-XII-son Qonunig 1- moddasida yoshlarga oid davlat siyosatining maqsad va vazifalari belgilab berilgan.<sup>1</sup>

Yoshlarga oid siyosat O'zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishiva kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo'lida imkoni boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid siyosat davlat siyosati quyidagi qoidalarga asoslanadi:

millati, irqi, tili,dini, ijtimoiy mavqei, jinsi,ma'lumoti va siyosiy e'tiqodidan qat'iy nazar yoshlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish;

- yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish;

---

<sup>1</sup> "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonuni. 20.11.1991. № 429-XII

- milliy madaniy an'analarning avloddan avlodga o'tishi, avlodlarning ma'naviy aloqasi
- yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, yoshlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida o'z manfaatlarini amalgam oshirish yo'llarini erkin tanlab olishiga kafolat berish;
- jamiyatni rivojlantirishga, ayniqsa respublika yoshlari hayotiga oid siyosat va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalgam oshirishda yoshlarning bevosita ishtirok etishi;
- huquq va burchlarning erkinlik va fuqarolik mas'uliyatining birligi

Yoshlarga oid davlat siyosatining maqsad va vazifasi hozirda tarbiyalanib borayotgan yoshlarning dunyo siyosat sahniga o'z haq-huquqlarini yaxshi tushungan holda davlatimizni rivojlangan davlatlar safiga kirita olishiga qaratilgan. Har qanday jamiyat taraqqiyot yo'lidan og'ishmay ilgarilab borgani sari bu taraqqiyotni ta'minlab, unga yangicha kuch va quvvat beradigan, zamonaviy fikrlaydigan, har tomonlama bilimli va aqlli yosh kadrlarga bo'lgan talab va ehtiyoj ham muttasil ortib boraveradi. Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlikning uzviy davom etayotganini ko'rganda, bu siyosat zamirida ana shu haqiqatni har tomonlama chuqur anglab, uzoqni ko'zlab ish yuritish tamoyili mujassam ekaniga ishonch hosil qilamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yosh ijodkorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ta'lim olayotgan yoshlarni rag'batlantirish, voyaga yetmaganlar o'rtasida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, buning uchun mas'ul davlat idoralari, jamoat tashkilotlari hamda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish, hayotimizda yoshlarning o'z o'rnini topishiga ko'maklashish, birinchi navbatda qishloq joylardagi yigit-qizlarni ish bilan ta'minlash, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi uchun imkoniyat yaratish, farzandlarimizning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish borasida qabul qilingan ko'plab farmon va qarorlari voyaga yetmaganlar va yoshlar manfaatlarini sohasidagi huquqiy asoslarni yanada kengaytirdi.

Istiqlol yillarida barkamol avlodni voyaga yetkazish maqsadida yurtimizda amalga oshirilayotganishlarni tahlil qilar ekanmiz bu borada bolalar va yoshlar huquqlarini samarali amalgam oshirish va barcha sohalarda himoya qilishga qaratilgan tegishli huquqiy asoslar to'la shakllantirildi. Xususan islohatlarning dastlabki davridayoq voyaga yetmaganlar va yoshlarni yagona mafkura asosida tarbiyalashgaxizmat qiluvchi ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va uning huquqiy asoslari tugatildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi, "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar, Fuqarolik va Oila kodekslari qabul qilinib, voyaga yetmaganlar va yoshlarni tarbiyalash, ularninghuquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning zamon talablariga mos demokratik huquqiy asoslariyaratildi.O'zbekiston Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Bola huquqlarito'g'risidagi, Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi konvensiyalar va boshqa bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlarga qo'shildi.

O'zbekiston respublikasi Prezidentining yosh ijodkorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ta'lim olayotgan yoshlarni rag'batlantirish, voyaga yetmaganlar o'rtasida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, buning uchun mas'ul davlat idoralari, jamoat tashkilotlari hamda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissialar faoliyatini takomillashtirish, hayotimizda yoshlarning o'z o'rnini topishiga ko'maklashish, birinchi navbatada, qishloq joylaridagib yigit-qizlarni ish bilan ta'minlash' jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi uchun imkoniyat yaratish, farzandlarimizning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish borasida qabul qilinganko'plab farmon va qarorlari voyaga yetmaganlar va yoshlar manfaatlarini sohasidagi huquqiy asoslarni yanada kengaytiradi.

Prezidentimizning va hukumatimiz tomonidan qabul qilinadigan qaror va farmonlari o'ziga qamrab oladigan asosiy strategik vazifalar qatoriga birinchi navbatda yoshlar manfaatining to'laqonli ravishda ta'minlanashiga yanada samarali xizmat qiladigan, zamon talablari darajasida yangi huquqiy bazani

rivojlantirish, mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan aholini sogʻlomlashtirish, ayniqsa, onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash borasidagi chora va tadbirlarni yanada kuchaytirish, bu sohaga jalb qilinayotgan mablagʻlarni keskin oshirish bilan bogʻliq masalalar kiritilishi lozimligiga alohida eʼtibor qaratdi.

Hozirgi kunda fan va texnologiyalarning eng ilgʻor yutuqlaridan foydalanishga qodir boʻlgan zamonamizning yangi avlod kadrlarini tarbiyalab yetishtirish davr talabiga aylanmoqda. Bu oʻrinda shuni alohida taʼkidlash joizki, insoniyat taraqqiyotining bugungi bosqichida hayotni tashkil etishning vositalari, manbalari, uslublari ham nihoyatda oʻzgarib bormoqda. Odamlar hayotini farovon qilishning yangi-yangi omillari tobora yorqinroq namoyon boʻlmoqda. Mazkur omillarni oʻz vaqtida anglab yetgan, ulardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini koʻra olgan mamlakatlarga davr talablari bilan hamnafas boʻlib, oʻz istiqbolini belgilay olishi mumkin. Mana shunday muhim omillardan biri — bu jamiyatning intellektual salohiyatidir. Ushbu masala bugungi kunda dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning eʼtibor markazida turgani ham shundan dalolat beradi.

Bir soʻz bilan aytganda, taʼlim-tarbiya, ilm-fan, intellektual salohiyatni yuksaltirish, zamonaviy taraqqiyotning yetakchi qonuniyatiga aylandi. Ushbu umumsotsiologik qonuniyat, tabiiyki, bizning jamiyatimiz uchun ham begona emas. «Biz yashayotgan XXI asr — intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr. Kimki bu haqiqatni oʻz vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa — bunday davlat jahon taraqqiyoti yoʻlidan chetda qolib ketishi muqarrar. Buni chuqur anglab olgan davlat, bunday xulosani chiqargan, xalqaro hamjamiyat va taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga koʻtarilish uchun harakat qilayotgan jamiyat, birinchi navbatda, bugun unib-oʻsib kelayotgan farzandlarining

har tomonlama barkamol avlod bo‘lib hayotga kirib borishini o‘zi uchun eng ulug‘, kerak bo‘lsa, eng muqaddas maqsad, deb biladi», deya qayd etdi Prezidentimiz.<sup>1</sup>

## **II bob. O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid siyosatning hayotga tadbiq etilishi.**

### **2.1 Yoshlarni huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilish.**

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan yoshlar ta‘lim-tarbiyasi, ularning ma‘naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlarning hayotimizning boshqa soxalari bilan o‘zaro chambarchas bog‘langan holda, tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan strategiyasi belgilab olindi. Unga asosan yoshlar huquqlarini himoya qilishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlarida islohotlar amalga oshirilmoqda: yoshlar huquqlarini himoya qilishni kafolatlovchi qonunchilik asoslarini yaratish va takomillashtirib borish; yoshlar huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq zarur institutsional tuzilmalarni qo‘llab-quvvatlash; yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ularga ta‘lim berish sifatini oshirish; yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish tizimini yaratish;

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - Toshkent: “O‘zbekiston” 1997. B.111.

ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan voyaga yetmaganlar va yoshlarga davlat tomonidan g'amxo'rlik ko'rsatish; voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish; barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida zarur ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni vujudga keltirish. Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bulganlar esa 64 foizini tashkil etadi. Shu ma'noda aholimizning aksariyat qismini tashkil etadigan voyaga yetmaganlar va shaxslarning huquqlarini himoya qilishga e'tiborni jalb etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.<sup>1</sup>

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profiaaktikasi deganda voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy hatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan. yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi tushuniladi.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy prinsiplari doirasiga esa: qonuniylik; insonparvarlik; tizimlilik; oilani qo'llab-quvvatlash va u bilan o'zaro hamkorlik qilish; ijtimoiy jixatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarning tarbiyasiga yakka tartibda yondashish kiradi.<sup>1</sup>

2011 yilga kelib mavjud 3,5 mingdan ziyod militsiya tayanch punktining 75 foizdan ortiqrog'i atrofida fakultativ to'garaklar, 71,2 foizi huzurida kichik biznes shahobchalari hamda qariyb 85 foizining qoshida sport anjomlari bilan jihozlangan sport maydonchalari barpo etilgan. Bu imkoniyatlar mahallaning katta-yu kichigini, ayniqsa, voyaga yetmaganlar, yoshlar va ayollarni foydali mehnatga, mashg'ulotlarga

---

<sup>1</sup> Fayziev Sh. Yosh avlod huquq va manfaatlarining muhim kafolati. 2008 yil 3 iyun O'zbekiston Milliy axborot agentligi(UzA)ning veb-sayti — [www.uza.uz](http://www.uza.uz) lari doirasida:

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni // "O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi"ning veb-sayti — [www.lcx.uz](http://www.lcx.uz)

jalb etishga yo'l ochmoqda<sup>2</sup>.

Yurtimizda "Har bir farzandga mehr-e'tibor!" haftaligini rant-barang tadbirlar, ijtimoiy-ma'rifiy loyihalar, uchrashuvlar, anjumanlar bilan o'tkazish yaxshi an'anaga aylanmoqda — haftalik doirasida "Sen yolg'iz emassan" Respublika jamoatchilik bolalar jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Respublika Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati va boshqa tashkilotlar hamkorligida "Men va mening huquqlarim" mavzusidagirespublika bolalar forumini o'tkazish buning dalilidir. Forum arafasida barcha maktablarda "bola huquqlari to'g'risida nimalarni bilaman?" mavzusida insholar tanlovi o'tkaziladi.<sup>3</sup>

Davlatimiz va jamiyatimiz yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlashni, bolalarga bag'ishlangan hayriya faoliyatlarini rag'batlashiradi. Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari ayni shu maqsadda tashkil etilgan. Markazlarda bolaar issiq ovkat, kiyim-kechak bilan ta'minlanmokda. Ularga zarur bo'lgan tibbiy va maishiy yordam ko'rsatiladi, tarbiyaviy, madaniy-ma'rifiy, sport-sog'lomlashtirish ishlari olib boriladi. Bu tadbirlarni amalga oshirish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Ushbu vazifani bajarishda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar kapa rol o'ynamoqda. Komissiyalar rais (tuman, shaxar, viloyat hokimi o'rinbosari, Qorakalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining o'rinbosari), rais o'rinbosari, mas'ul kotib va komissiyaning 6-12 a'zosi tarkibida tuziladi.<sup>1</sup>

Komissiya a'zolari soni komissiyaning ish hajmiga qarab belgilanadi. Komissiya tarkibiga Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, sog'liqni saqdash, Moliya vazirligi huzu-ridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, ichki ishlar organlari, xotin-qizlar qo'mitasi, kasaba uyushmalari,

---

<sup>2</sup> Ahillik-barqarorlik omili. 2010 yil. 22 oktabr ||[www.uza.uz](http://www.uza.uz)

<sup>3</sup> Xuquqiy bilim va tarbiya uyg'unligi 2009yil 24 noyabr || [www.uza.uz](http://www.uza.uz)

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 sentyabrg' "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqila"gi Qarori // [www.lcx.uz](http://www.lcx.uz).

nodavlat notijorat tashkilotlari, mudofaaga ko'maklashish jamiyati, mehnat jamoalari, madaniy-ma'rifiy va boshqa muassasalarning vakillari kiradilar.<sup>2</sup>

Voyaga yetmaganlar va yoshlarimizning bo'sh vaqtini unumli tashkil etish, ularni foydali ishlarga yo'naltirish ko'plab muammolar yechimiga yo'l ochadi. Shu maqsadda "Kuch — bilim va tafakkurda" to'garaklar ko'rgazmasini tashkil lish an'anaga aylangan. Hozirgi kunda mamlakatimizda 563 ta maktabdan tashkari ta'lim muassasasi tashkil etilgan bo'lib, ulardagi xorijiy tillarni o'rganish, hunarlar sirlarini egallash, texnikaviy ijodkorlik bilan shug'ullanish kabi sohalarga oid to'garaklarda 550 mingga yaqin o'quvchi qatnashmoqda. Uch yuzdan ziyod musiqa san'ati maktabida qirq mingdan ziyod farzandlarimiz tahsil olmoqda. To'rt yuzdan ziyod bolalar va o'smirlar sport maktablariga 270 mingdan ziyod bolalar jalb etilgan. Bundan tashqari, xar bir umumta'lim maktabida faoliyat ko'rsatayotgan fan to'garaklarida o'quvchilar o'z bilimlarini oshirmoqda, maktab va mahallalarda tashkil etilgan sport seksiyalarida qatnashmoqda.<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida ta'lim-tarbiyaning yangi tizimi yaratildi va u takomillashib bormoqda. Hozirgi kunga kelib ta'lim-tarbiya tizimini jamiyat rivojlanishining uzoq muddatli ehtiyojlariga moslashtirish maqsadida davlat ushbu tizimda global tarkibiy islohotlar o'tkazib, ta'lim sohasini tubdan qayta qurdi. O'zbekiston Prezident I. A. Karimov ushbu sohadagi taraqqiyotimiz yakunlariga baho berar ekan: "Biz tanlagan taraqqiyot yo'lining tarkibiy qismiga, aniqroq aytadigan bo'lsak, kelajagimizning mustahkam poydevoriga aylanib borayotgan ta'lim sohasidagi buyuk dasturlarimizni o'z vaqtida, uzoqni ko'zlab ishlab chiqqanimiz va amalga oshirganimiz naqadar to'g'ri bo'lganligi bugun

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 24 mart "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek bahzilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risidagi qarori || [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>1</sup> Yosh avlod huquq va manfaatlarini muhofazasi doimiy e'tiborda. 2010 yil 20 oktyabr // [www.uza.uz](http://www.uza.uz).

mamlakatimiz erishgan yuksak marra va natijalar yaqqol namoyon etmoqda”<sup>2</sup> deb ta’kidladi.

Hozirgi dunyoda ta’lim sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish strategiyasi qat’iy belgilangan hamda jamiyat rivojlanishining postindustrial bosqichi va globalashuv jarayonlari sharoitida inson salohiyatini shakllantirishning eng muhim omili bo’lgan ta’limning ahamiyati ortib borayotganligini inobatga olgan holda yaratilishi lozim.

Jamiyatimizning eski ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan boshqaruvning ma’rifiy demokratik tizimiga o’tishi davlatning ta’lim sohasidagi roli bilan bog’liq ko’plab masalalarni yuzaga keltirmoqda. Ayni vaqtda, asosiy masalalardan biri ta’lim munosabatlarini davlat va huquq vositalari bilan tartibga solish muammosiga yangicha yondashuvlarni izlashdir. E’tirof etish lozimki, davlatsiz va ta’lim tizimiga uning izchil ta’sirisiz mamlakatni isloh etish va modernizatsiyalash borasidagi ulkan vazifalarni bajara olmaymiz. Kuchli va jo’shqin rivojlanuvchi ta’lim siyosati, bir tomondan, jahon ta’lim standartlarining yuksak darajasiga erishishga qaratilgan, ikkinchi tomondan esa, aniq ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni, shuningdek o’zbek xalqining o’ziga xos xususiyatlari va ma’naviy-madaniy qadriyatlarini inobatga olishga asoslangan. Ta’lim sohasida davlat siyosatini amalga oshirish va ta’lim tizimini isloh qilishning zaruriy vositasi ta’lim to’g’risidagi qonunchilikdir. Mazkur qonunchilikni hayotga izchil va qat’iy joriy etish, shubhasiz muvaffaqiyat garovidir.

Mamlakatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlar ta’lim sohasida mutlaqo yangi huquqiy yechimlar topishni talab qildi. Shu asnoda qabul qilingan qonunchilik xujjatlari butun ta’lim tizimini samarali isloh qilishga imkon berdi. Bozor iqtisodiyotiga o’tish davrining murakkab sharoitida ta’lim tizimining holatini barqarorlashtirish hamda uni yanada rivojlantirishga jiddiy ta’sir ko’rsatgan davlat ahamiyatiga molik bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Eng avvalo, ta’lim faoliyatini tartibga soluvchi salmoqli qonunchilik bazasi yaratildi.

---

<sup>2</sup> 'Karimov I. A. O'zbekiston Konstitutsiyasi — biz uchun demokratik taraqqist yo'lida va fuqarolik jamiya-tini barpo etishda mustaxkam poidevordir. O'zbekiston Respublikasi Koistituiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bagashlangan tantanali marosimdagi ma'ruza // Xalq so'zi. — 2009. — 6 dekabr.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi bilan mamlakat ta'lim-tarbiya tizimining faoliyati va rivojlanishidagi ustuvor yo'nalishlar hamda asosiy ko'rsatkichlar belgilandi. Ta'lim faoliyati barcha daraja-larda tizimli harakatlar qilishni, ta'limning tuzilishi, mazmuni, moddiy bazasi va boshqaruvi sohasida tub o'zgarishlar yasashni talab qilgani bois, mamlakat Prezidenti I. A. Karimov tashabbusi bilan 1997 yilda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. | 2004 yilda esa uning tarkibiy qismi sifatida Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi ishlab chiqildi. Mazkur hujjatlarning hayotga joriy etilishi jarayonida hokimiyat idoralari murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga qaramay ta'lim tizimini isloh qilish, uning hozirgi sharoitda faoliyat ko'rsatishi uchun zarur zamin yaratish borasida ulkan va maqsadli ishlarni amalga oshirdilar.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning dastlabki bosqichida ta'lim-tarbiya tizimining qonunchilik asoslarini shakllantirishga qaratilgan keng miqyosli ishlar amalga oshirildi. Ta'limning maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlanadigan va oliy ta'limdan keyingi bosqichini qam o'z ichiga olgan barcha turlari faoliyatining prinsiplarini belgilovchi normativ hujjatlar qabul qilindi. Unga maxsus va kasb-hunar beruvchi ta'lim muassasalari faoliyatining prinsiplari qonun darajasida belgilab qo'yildi. Ularning moddiy-texnika bazasini takomillashtirish, darslik va boshqa o'quv qo'llanmalarini ham o'z ichiga olgan o'quv-metodik komplekslar yaratish dasturi tasdiqlandi. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar davomida yosh avlodning ma'naviy-ahloqiy shakllanishi, hayotda o'z o'rnini topishga tayyorgarlik ko'rishi, insonparvarlik g'oyalari, o'zbek xalqiga xos ma'naviy va boshqa umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga imkon beruvchi yangi ta'lim-tarbiya muhitini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar o'tkazildi. Maktabgacha bo'lgan muassasalardan tortib oliy o'quv yurtlaridan keyingi ta'limgacha bo'lgan barcha darajalarda qabul qilingan yangi ta'lim dasturlarida o'quv va tarbiya jarayonlarining uzviyligi ta'minlandi, ta'lim oluvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash va ma'rifiy ishlarni amalga oshirishning samarali shakl va usullari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etildi. Ta'lim sohasida

amalga oshirilgan ish-larning natijalariga baho berib, ta'kidlash joizki, mazkur soha o'z miqiyosiga ko'ra hayotimizda yuzaga kelgan yangi munosabatlarni samarali huquqiy tartibga solishning ulkan mulkiy va intellektual kompleksiga aylandi. Ta'lim sohasidagi milliy dasturlarni hayotga tatbiq etish boshlanganidan buyon respublikamiz akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda umumta'lim maktablarida juda katta ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. "...Hozirgi kunda ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan harajatlar hajmi mamlakatimiz yalpi ichki maxsuloti tarkibida 12 foizdan ortadi. Holbuki jahon tajribasida bu ko'rsatkich 3-5 foizdan oshmaydi"<sup>1</sup>. Jahon bankining ekspertlari (192 ta mamlakat ma'lumotlari bo'yicha milliy boylikni tahlil qilish asosida) o'tgan ming yillik oxiriga kelib milliy boylikning 16 foizi — ishlab chiqarish fondlari hissasiga; 20 foizi - tabiiy resurslarga; 64 foizi — "inson kapitali"ga to'g'ri keldi, degan xulosani chiqardilar.

Demak, milliy ta'lim-tarbiya tizimiii rivojlantirishda davlatning hozirgi siyosati va strategiyasi uni ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyot sharoitlariga yanada mosdasttirish, o'zgartirish va jahon hamjamiyatiga qo'shilishga qaratilmog'i lozim.

Ta'lim sohasidagi islohotlarning asosiy jihatlaridan biri zamonaviy bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan hamda ta'limni rivojlantirish uchun zarur resurslariing jalb etilishi va oqilona foydalanilishini ta'minlashga xizmat qiladigan yangi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratishdan iborat. Hozirgi kunda fuqarolar-ning ta'lim sohasidagi konstitutsiyaviy huquq, erkinlik va manfaatlarini ishonchli himoyalash, ta'lim tizimini shaxs, jamiyat va davlatning zamonaviy ehtiyojlariga muvofiqlashtirish, uning yanada rivojlanishi, erishgan yutuqlarning ko'paytirilishi va o'zbek xalqining eng yaxshi an'analari saqlanib qolishi uchun shart-sharoit yaratish, yoshlarni bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik fuqarolik jamiyatila yashash va mexnat qilishga tayyorlash kabi dolzarb vazifalar turibdi. Ta'lim sohasini isloh qilishga qaratilgan davlat siyosatining moliyaviy-

---

<sup>1</sup>Karimov I. A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlaitirish yo'lida. T.16. - Toshkent: O'zbekiston, 2008. - B. 31-32.

iqtisodiy, tashkiliy, ma'muriy va axborot resurslari bilan ta'minlangan kompleks choralarning maqsadi ana shularga erishishga qaratilgan. "Aynan mana shunday har tomonlama yetuk avlodgina bugun hayot oldimizga qo'yayotgan o'ta murakkab, og'ir sinov va qiyinchiliklarni yengish, biz ko'zlagan yuksak marralarni egallashning eng asosiy sharti"dir<sup>1</sup>.

Har qanday tarmoq tizimi kabi ta'lim huquqi ham ikki darajali tuzilishga ega bo'lib, qonunlar va qonun osti hujjatlari (Prezident, Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralarning hujjatlari)ni o'z ichiga oladi. Ta'lim sohasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi ikkita bevosita qonuni, 50 ga yaqin boshqa qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta farmoni va 10 ta qarori, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 70 dan ortiq qarorlari bilan tartibga solinadi<sup>2</sup>.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ta'lim va tarbiyaviy huquqiy asosini belgilaydi hamda insonning ta'lim sohasidagi huquqiy maqomiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu qonun ta'lim to'g'risidagi qonunchilik tizimida alohida o'rin tutadi, Konstitutsiya hamda ta'lim munosabatlarini tartibga soluvchi qolgan barcha qonunchilik hujjatlarini o'zaro bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. U O'zbekiston Respublikasi davlat idoralarning ta'lim sohasidagi vakolatlarini belgilaydi, tegishli munosabatlarni huquqiy tartibga solish bo'yicha asosiy umumiy qoidalarni joriy etadi. Uning normalari ta'lim bosqichlarini, o'quv yurtlarining turlarini, ularni ta'sis etish va litsenziyalash tartibini, ta'lim shakllarini, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini, faoliyat printsiplarini hamda ta'lim sohasidagi huquqiy munosabatlarga oid boshqa masalalarni belgilab beradi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun bilan barcha turdagi ta'lim muassasalarini tashkil qilish, ularning ta'sis etilish tartibi bilan bog'liq asosiy masalalar tartibga solingan, har bir ta'lim muassasasi ega bo'lishi va nizomda ko'rsatilishi shart

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. O'zbekiston Konstitutsiyasi - biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantana marosimdag ma'ruza // Xalq so'zi. — 2009. — 6 dekabr

<sup>2</sup> "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi" huquqiy axborot izlash tizimi Veb-sayti ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)) ning 2010 yil 1 fevralgacha bo'lgan ma'lumoti.

bo'lgan tarkibiy qismlar belgilangan, ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablar ifodalangan, fuqarolarni ta'lim muassasalariga qabul qilishga doir umumiy talablar mustahkamlangan. Qonunda ta'lim muassasalarining vakolatlari va javobgarligini tartibga solish, ularni boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan; mamlakatda ta'limni boshqaruvchi idoralariing roli va turlari, ta'lim sifatini davlat tomonidan nazorat qilish tartibi belgilangan. Ta'lim tizimida mulkchilik munosabatlari, ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tartibi, ularning moliyaviy va moddiy mablag'lardan foydalanish borasidagi huquqlari, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi belgilangan. Qonunda ta'lim muassasalari xodimlarining ishini tashkil qilish va ularga maosh to'lash, ularga boriladigan davlat kafolatlari va imtiyozlariga oid muhim masalalar o'z yechimini topgan.

Ta'limga oid qonunchilik hujjatlari ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari alohida o'rinni egallaydi. Ularda ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va ijtimoiy bazasini mustahkamlashda hamda ta'lim sohasi xodimlari, o'quvchilar, talabalar, aspirantlarni davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilish darajasini kuchaytirishga qaratilgan bir qator tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Ta'lim qonunchiligi ierarxiyasidagi keyingi o'rinni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari egallaydi. Ta'lim to'g'risidagi huquq manbalari ichida vazirlik va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlari ham katta o'rin tutadi. Ularga Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'lim vazirligi va boshqa marka-ziy boshqaruv idoralariining buyruq va qarorlari kiradi.

Mamlakatimizda ta'limni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi va manbaiga, jamiyat va iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini shakllanti-rishning muhim mexanizmiga aylantirish shaxsning ta'lim sohasidagi erkinliklari va ta'lim olish borasidagi imkoniyatlardan keng foydalanish huquqi, ilm olish ehtiyojlarini qondirish bo'yicha yuridik kafolatlarni saqlab qolgan holda ta'limning raqobatbardoshligi oshirilishini ta'minlovchi huquqiy hujjatlarni yaratish vazifasi asosan qabul qilindi. Ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish doirasida o'quv-tarbiya

jarayonini tashkil qilishning shakl va mexanizmlari, ta'lim texnologiyasi va yangi mazmuni faol sinovdan o'tkazilmoqda. Shu o'rinda ta'lim to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish va umuman, ushbu sohadagi munosabatlarni ta'lim amaliyoti ehtiyojlaridan kelib chiqib huquqiy tartibga solish zarurati borgan sari aniq namoyon bo'lmoqda. Shu bois "bu borada mavjud xuquqiy va yuridik bazani tanqidiy ko'z bilan qarab, ularga bugun zamon talab qiladigan tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, kerak bo'lsa, oldimizga qo'ygan maqsadlarga javob beradigan yangi huquqiy normalarni ishlab chiqish va Oliy Majlisimiz tomonidan qabul qilish katta ahamiyatga ega"<sup>1</sup>.

Barcha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy printsiplariga yanada qat'iy muvofiqlashtirish zarur. Zero, Konstitutsiyaga ko'ra, ta'lim olish huquqi inson va fuqaroning muhim ajralmas huquqlaridan biri sanaladi. Ta'lim-tarbiya tizimining huquqiy, tashkiliy, moliyaviy va boshqa jihatdan ta'minlanishini davlat tomonidan tartibga solish muammolarini chuqur ilmiy tadqiq qilish talab etiladi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatdan butunlay yangi bosqichga ko'tarish diqqatimiz markazida bo'lishi darkor"<sup>1</sup>.

Ta'lim tizimida O'zbekiston milliy davlat mustaqilligi qo'lga kiritguniga qadar respublikamizda 42 oliy o'quv yurti mavjud bo'lib, ulardan faqat 3 tasi (Toshkent, Samarkand, Qoraqalpoq) universitet, 14 tasi pedagogika yoki tillar pedagogika instituti, 9 tasi muhandislik-texnika instituti, 3 tasi qishloq xo'jaligi instituti, 7 tasi tibbiyot-farmatsevtika instituti, 3 tasi madaniyat, san'at, musiqa instituti, 1 tadan xalq xo'jaligi, kooperativ, jismoniy tarbiya instituti edi. 1978 - 1979 o'quv yili O'zbekistonda 42 oliy o'quv yurti bo'lib, ularda 266,5 ming kishi o'qidi. Oliy

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. O'zbekiston Konstitutsiyasi — biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyati barpo etishda mustahkam poydevordir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanasi marosimdagi ma'ruza // Xalq so'zi. — 2009. - 6 dekabr.

<sup>1</sup> Karimov I. A. O'zbekiston Konstitutsiyasi — biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimlagi ma'ruza // Xalq so'zi. — 2009. — 6 dekabr.

o'quv yurtlarida kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim o'quv yurtining 19 tasi (deyarli yarmi) bitta shahar — Toshkentda, 5 tasi Samarkandda, 4 tasi Andijonda, 3 tasi Buxoroda, jami oliy o'quv yurtlarining to'rtidan uch qismi respublikaning to'rtta shaxrida joylashgan xolda faoliyat olib borgan. Respublikaning sobiq sho'ro davridagi agrar-industrial maqomi oliy o'quv yurtlarining atigi 21% muhandis-texnika sohalarida kadrlar tayyorlashga qaratilganligida ham o'zining yaqqol ifodasini topgan edi. Uning ulkan tabiiy boyliklari, qishloq xo'jalik maxsulot (paxta tolasi)larining aksariyat qismi xom ashyo sifatida O'zbekiston hududidan olib chiqib ketilishi uning oliy ta'lim tizimida ham to'la aks etar, mavjud oliy o'quv yurtlarining 80% ga yaqini zamonaviy tayyor mahsulot ishlab chiqarishga mo'ljallanmagan mutaxassis kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan edi.

Respublika oliy ta'lim tizimining tarkibiy tuzilishi va amal qilishi jarayonlari uning mavjud iqtisodiy-moddiy, milliy-tabiiy, ma'naviy-intellektual salohiyati imkoniyatlariga zamonaviy talab-ehtiyojlar darajasida javob bera olmas edi. Uning tizimida bo'lmagan ixtisosliklar bo'yicha oliy malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash markazning maxsus rejasi bilan belgilangan miqdorda markaziy oliy o'quv yurtlarida amalga oshirilardi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin uning oliy ta'lim tizimini tubdan o'zgartirishning eng muhim yo'nalishlari belgilab olindi. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining rivojlangan xorijiy mamlakatlar bilan ta'limni takomillashtirish maqsadlariga yo'naltirilgan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish bo'yicha ham katta imkoniyatlar ochildi. O'zbekistan Respublikasining 1992 yil 2 iyulda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni oliy maktab yangilanish jarayonining, xalqaro ta'lim standartlarini oliy ta'limga joriy qilishning, yoshlarni o'qitishda o'zbek xalqining boy ma'aviy merosidan va ilg'or jahon tajribasidan foydalanishni kengaytirishning huquqiy asosi bo'ldi. Mustaqillikning birinchi yilidan boshlab oliy ta'lim tizimini isloh qilishga kirishildi. 1991 yilda Toshkent universiteti (O'zMU) va Toshkent texnika universitetlari tomonidan unverta'lim tizimini zamonaviylashtirish loyihasi tayyorlanib, 1992 yil fevralda yangi o'quv rejalar to'plami yaratilib, u ToshDUning barcha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha

bakalavrlar tayyorlashning yangi o'quv rejalari va dasturlariga asos qilib olindi. Shunday qilib, O'zbekistonda ikki bosqichli oliy ta'lim tizimiga o'tishning asosi belgilandi.

1993 yilda oliy Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha vaqtincha amal qilish uchun mo'ljallangan davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi va bakalavrlar tayyorlashda sinab ko'rishga joriy etildi. ToshDU va Toshkent texnika universiteti jamoalari orttirgan amaliy tajriba mamlakatning boshqa oliy o'quv yurtlari amaliyotiga ham hududiy va milliy xususiyatlarga moslashtirilgan holda tadbqiq etila boshladi. 5 - 6 yilik mana shunday keng ko'lamli va katta hajmli tayyorgarlik ishlari amalga oshirilgandan keyin oliy ta'limning yangi milliy modeli tamoyillari shakllandi va uning asosiy mezon-o'lchovlari aniqlab olindi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni (1997 yil 29 avgust) va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish, ularni zamonaviy o'quv laboratoriya uskunalari va kompyuter texnikasi bilan jihozlash, darslik va o'quv-uslubiy materiallar, pedagog kadrlar bilan ta'minlash, o'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malaka-sini oshirish, ularning mexnatini rag'batlantirishni kuchaytirish tadbirlari aniq belgilab berildi. Byudjet mablag'lari, korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik mablag'lari, xorijiy kreditlar va grantlar asosida oliy ta'lim rivojini moliyalashning asosiy manbalari etib belgilandi. Ushbu mablag'larni jamlash, ulardan maqsadli foydalanishning chora-tadbirlari ishlab chiqilib, amalga oshirildi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot yo'nalishiga katta ahamiyat berildi. Agar 1991 yilda oliy o'quv yurtlarida 5 iqtisodiy ixtisoslik bo'yicha mutaxassis tayyorlangan bo'lsa, 1995 yilda 24 oliy o'quv yurtida 60 ixtisoslikni o'z ichiga oluvchi 7 yo'nalish bo'yicha iqtisodchilar tayyorlandi. 1992 yilda iqtisodiyot mutaxassisligi bo'yicha talabalar O'zbekiston oliy o'quv yurtlari talabalarining 2,5%ni tashkil etgan bo'lsa, 1995 yilda 17%ga etdi. 1991-1999 yillar davomida Toshkent va viloyatlar markazlarida faoliyat olib borayotgan 13 pedagogika, poli-texnika, qishloq-xo'jalik, til, xalq xo'jaligi institutlariga universitet maqomi berilib,

ularning talim-tarbiya jarayonlari universitet tizimiga xos ravishda qayta qurildi. Bu davrda, shuningdek, Toshkent Islom universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Jizzax politexnika, Toshkent kimyo-texnologiya, Toshkent arxitektura va qurilish, Toshkent aviatsiya, Navoiy konchilik, Andijon muxandislik-iqtisodiyot, Namangan muxandislik-iqtisodiyot, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot, Namangan muhandislik-pedagogika, Navoiy pedagogika, Toshkent tibbiyot, Toshkent moliya, Toshkent yuridik, Toshkent sharqshunoslik, Samarkand chet tillar, Milliy rassomlik va dizayn institutlari, Toshkent milliy raqs va xoryeografiya oliy maktabi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 28 yanvardagi farmoni bilan ToshDUga «Milliy universitet» maqomi berildi va u O'zbekiston milliy universiteti deb nomlandi. 2002 yil iyulda Toshkentda Xalqaro Vestminster universiteti tashkil etildi va 160 nafar dastlabki talabalar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 19 iyuldagi farmoniga muvofiq Birinchi va Ikkinchi Toshkent tibbiyot institutlari negizida Toshkent tibbiyot akademiyasi tashkil etildi. Viloyatlar markazlarida tashkil etilgan oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ularning ilmiy intellektual imkoniyat va moddiy texnika bazasini mustahkamlash maqsadida 1995 yil 31 mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi «O'zbekiston Respublikasi mintaqaviy oliy o'quv yurtlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» maxsus qaror qabul qildi.

2006 yil respublikada 62 oliy o'quv yurti, jumladan, 19 universitet faoliyat ko'rsatdi. Ularda 265438 talaba ta'lim olib, 21409 professor - o'qituvchi, jumladan, 1662 fan doktori va professor, 7360 fan nomzodi va dotsent ishladi.

2012 yilga kelib esa O'zbekistonda 59 ta oliy ta'lim muassassasi, poytaxtimizdagi oliy o'quv yurtlarining 11 ta hududiy filiali faoliyat ko'rsatmoqda.<sup>1</sup>

Mustaqillik yillari oliy ta'lim faoliyati mazmuni tubdan o'zgardi. Oliy ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-

---

<sup>1</sup>Barkamol avlod – mamlakatni rivojlantirishda hal qiluvchi kuch. “Turkiston” 2012 yil 18 fevral, shanba № 13 (15547) 4-bet

moddiy shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor berildi. Davlat ta'lim standartlari, yangi avlod darsliklari yaratilib, ta'lim jarayoniga joriy etildi.

Oliy ta'lim 2 bosqich - bakalavriat va magistraturadan iborat. Bakalavriat mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida 4 yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir. Bakalavrluk dasturi tugallanganidan keyin bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan ta'lim yo'nalishi bo'yicha «bakalavr» darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasbxunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi. Bakalavr ta'lim yo'nalishlari doirasida asosiy bilimlar mag'ziga ega bo'lishi, ilmiy va ilmiy-texnik muammolarni tushunishi, taraqqiyot istiqbollari ko'ra bilishi, jarayonlar, texnologiyalar, oyektlarga nisbatan texnik-iqtisodiy talablarni shakllantira olishi hamda ularning amalga oshirilishidagi ilmiy-texnik vositalarni belgilay olishi, biznes-tadbirkorlik faoliyatlari bilan shug'ullana bilishi lozim.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida kamida 2 yil davom etadigan oliy ta'limdir. «Magistr» darajasini beradigan davlat attestatsiyasi magistrlik dasturining imtihosi hisoblanadi. Magistrlarga ham davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasbxunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi. Magistr o'zi tanlagan ixtisoslik bo'yicha yangi bilimlarni egallash va ularni boshqalarga bera olish, g'oyalarni jamlash, texnologiyalar, obyektlarni taxlil etish va mujassamlashtirish, ilmiy izlanish natijalarini ishlab chiqarishda qo'llash, ilmiy muassasalar, konstruktorlik byurolarida maqsadli faoliyatlarni tashkil etish va boshqarish, ishlab chiqarish, biznes va tadbirkorlikni uyushtirish va boshqarish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari va to'lov-shartnoma asosida test sinovlari natijalariga ko'ra to'plangan ballarning reyting tizimi bo'yicha amalga oshiriladi. Test sinovlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi amalga oshiradi. Test sinovlari uch tilda — o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida o'tkaziladi. Abituri-ent test sinovlarini oliy ta'lim muassasasida o'qiydigan tilda topshiradi.

O'zbekistonda oliy ta'lim davlat ta'lim standartlari asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xorijdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan aloqalarini kuchaytirish, chet el investitsiyasini ta'lim sohasiga jalb etishga alohida e'tibor qaratilgan. Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro hamkorligi ta'lim tizi-mini takomillashtirish va uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, malakali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, xorijiy ta'lim muassasalari bilan o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish, professor-o'qituvchi, doktorant, aspirant va talabalarning til va kasbiy malakasini oshirish hamda ta'limning turli yo'nalishlari bo'yicha tajriba almashish maqsadlarida amalga oshirilmoqda.

O'zR oliy ta'lim muassasalari MDH davlatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstriya, Belgiya, Frantsiya, Italiya, Ispaniya, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiyadagi universitet va boshqa oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshirib kelmokda. Xususan, mustaqillik yillarida oliy ta'lim tizimida malaka oshirish, tajriba almashish, o'qitishning zamonaviy usullarini o'rganish, turli anjumanlarda ishtirok etish va tahsil olish maqsadida minglab professor-o'qituvchi, aspirant hamda talabalar xorijiy mamlakatlarning nufuzli oliy ta'lim muassasalari hamda markazlarida bo'ldilar. Bundam tashqari, turli darslik, o'quv qo'llanmalari va metodik ishlanmalar yaratishda birgalikda ish olib borilmoqda.

O'zbekistonda ta'lim tizimini takomillashtirish va o'zaro tajriba almashishda Yevropa Ittifoqining Tempus dasturi loyihalari alohida o'rin tutadi. 2005 yil Tempus loyihalarida respublikaning 30 dan ortiq oliy ta'lim muassasasi ishtirok etdi. Mazkur ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari va mutaxassislari Yevropaning nufuzli oliy ta'lim muassasalarida malaka oshirdilar va tajriba almashdilar. 2005 yil respublika oliy ta'lim muassasalari o'z yo'nalishlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan ilmiy-ijodiy, amaliy aloqalar o'rnatgan. 251 professor-o'qituvchi, aspirant xorijiy mamlakatlarga yuboriddi. Ular malaka oshirish, tajriba almashish, o'qitishning zamonaviy usullarini o'rganish, turli anjumanlarda ishtirok etish, i.t. ishlarini olib

borish imkoniyatiga ega bo'ldilar. 144 bakalavr va magistr Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Gretsiya, Slovakiya, Chexiya, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Malayziya va boshqa mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalariga yuboriddi. Respublika oliy ta'lim muassasalarida Yaponiya, Janubiy Koreya, Gretsiya, Misr, Italiya, Polsha va boshqa davlatlardan taklif etilgan 141 xorijlik professor-o'qituvchi va mutaxassis faoliyat ko'rsatmoqta. Ular o'z mamlakatlarning tili, madaniyati va urf-odatlarini tanishtirish bilan birga turli mutaxassislik va yo'nalishlar bo'yicha dars berib kelmokdalar, zamonaviy dasturlar yaratish, o'qitishning yangi texnologiya va usullarini o'rgatmoqdalar.

Oliy ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish ham jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi farmoni, 2005 yil 8 iyuldagi «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyundagi «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 2005 yilda oliy ta'lim muassasalaridagi kompyuterlarning umumiy soni 18750 taga, internetga ulangan kompyuterlar soni 9745 taga etkazildi. Internet tarmog'i axborot resurslaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi Elektr tizimi ishlab chiqildi va joriy etildi. Uning ma'lumotlar bazasida ta'lim, fan va texnikaga oid eng so'nggi ma'lumotlar jamlangan hamda undan korporativ axborot tizimi doirasida bevosita foydalanish imkoniyati yaratilgan.

O'zbekistonda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning vazifasi jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan extiyojlarini qoniqtirishga, shaxsning ijodiy ta'lim kasb-xunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan

Aspirantura—yagona uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning asosiy shakllaridan biri. Aspirantura akademik va malakaviy nomzodlik imtihonlari topshirish hamda

nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan yakunlanadi va tanlangan mutaxassislik bo'yicha fan nomzodi ilmiy darajasi beriladi.

Doktorantura — yagona uzluksiz ta'lim tizimining aspiranturadan keyingi tarkibiy qismi bo'lib, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning oliy shakllaridan biri. Doktorantura dissertatsiya himoya qilinishi bilan yakunlanadi va tanlangan mutaxassislik bo'yicha fan doktori ilmiy darajasi beriladi. Respublikada aspirant, doktorant va yosh olimlar ilmiy tadqiqot faoliyatlarini moddiy hamda ma'naviy qo'llab-quvvatlashning samarali tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, amaliyotga sobitqadamlik bilan joriy etilmoqda. Ilmiy kadrlar tayyorlash ko'lemi jamiyatda amalga oshirilayotgan islohot jarayonlarini o'zida aks ettiradi. Buni, xususan, oliy ta'lim muassasalarida yangi mutaxassisliklar bo'yicha ochilayotgan aspirantura, doktoranturalarni mamlakat hayotidagi o'zgarishlardan kelib chiqqan holda amalga oshirilayotganida ham ko'rish mumkin. Iqtidorli, o'z dissertatsiyalari ustida muvaffaqiyatli izlanishlar olib borayotgan aspirantlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 20 fevraldagi «Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 21 iyuldagi «Fan va innovatsiya faoliyati rivojlanishining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, Fan va texnologiyalar markazi tomonidan o'tkaziladigan tanlovda ishtirok etib, rivojlangan xorijiy davlatlarning oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalariga ilmiy tajriba almashishga boradilar. 2005 yil O'zbekistonda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimida 1980 aspirant, 183 doktorant shug'ullandi. Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi darajasida qisqa muddatda keng ishlar amalgam oshirildi. Mazkur xujjatga muvofiq, barcha umumta'lim maktablari qaytadan o'rganib chiqildi. O'tkazilgan inventarizatsiya natijalariga ko'ra, Respublika bo'yicha maktablarning 648 tasi avariya holatiga kelib qolganligi, 2277 ta maktab rekonstruktsiya, 4399 ta maktab kapital tamirlashga, 2197 ta maktab esa joriy tamirlashga muxtoj ekanligi aniqlandi. Manashu axvolda ta'limning sifat va samaradorligini naqadar dolzarb zaruratga aylanganligini hisobga olib, Prezidentimiz 2004 yil 21 maydagi "2004-

2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida qo'shilgan qarori qabul qilindi. Dasturda maktab ta'limini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilab berildi:

- Umumta'lim maktablari binolarini va muxandislik kommunikatsiya infratuzilmasini tubdan yangilash va kapital rekonstruktsiya qilish;
- Maktablarni zamonaviy o'quv va o'quv laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va o'quv uslubiy materiallar bilan ta'minlash
- Ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish;
- Umumta'lim maktablarini malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, o'qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish, ularning mehnatini rag'batlantirishni kuchaytirish;
- Umumta'lim maktablarida sportni rivojlantirish, o'quvchilarning sog'lom va barkamol voyaga yetishi uchun sharoitlar yaratish.

Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi doirasida 2004-2009-yillarda respublikamiz bo'yicha 3.0 mln o'quvchi o'rinli 8501 ta maktabda qurilish tiklash ishlari bajarildi. Jumladan 351 ming [116 580 o'quvchi o'rinli] yangi maktab binosi qurildi. 2470 ta [851 294 o'quvchi o'rinli] yangi maktab rekonstruktsiya qilindi, 3608 ta [2044942 o'quvchi o'rinli] maktab kapital, 2072 tasi esa joriy tamirlashdan chiqarildi. Ushbu maqsadlarga jami 1,4 trln so'm mablag' sarflandi.

Dastur doirasida qayta tiklash ishlari amalgam oshirilgan maktablarning 1326 tasi (16%) shaharlarda, 6887 tasi (81%) qishloq hududlarida, 288 tasi (3%) borish qiyin bo'lgan hududlarda joylashgan bo'lib bu bilan shahar va qishloq maktablarining moddiy texnik bazasi orasidagi tafovut barham topdi.

Shu yillar davomida 1607 ta maktab toza ichimlik suvi bilan taminlandi. 1163 ta maktab gazlashtirildi. 1607 ta maktabga telefon aloqasi o'rnatildi. 2004-2011-yillarda 4 mln 275.2 ming o'quvchi o'rinli 8832 ta maktabda qurilish tamirlash ishlari amalga oshirildi. 538.0 mlrd so'm sarflandi.

Hozirgi kunda respublikamizda xalq ta'limi tizimida 5215 ta maktabgacha ta'lim muassasalari ,9779 ta umumta'lim maktabi ,303 ta musiqa va san'at maktabi ,232 ta bolalar va o'smirlar sport maktabi, 211 ta "Barkamol avlod" markazi, 5 ta pedagogika instituti hamda 16 ta malaka oshirish institutlari samarali faoliyat yuritmoqda. Xalq ta'limi vazirligi huzurida Multimediya umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi ish boshladi. Ushbu markaz Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 7 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzurida Multimediya umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi qonuniga asosan vujudga keldi. Hozirda uning rasmiy [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz) axborot ta'lim veb sayti yaratilgan. Ushbu veb saytda o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalar uchun turli xil foydali resurs va materiallar, xalq ta'limi tizimidagi yangiliklar mavjud."

Respublikamizda yangi tipdagi 1537 ta o'rta maxsus, kasb-hunartalimi muassasalarida yoshlar eng zamonaviy talablar asosida o'qitilmoqda;

1998-2011 yillarda o'rta maxsus va kasb hunar ta'limi dargohlarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy o'quv laboratoriya jihozlari va kompyuter texnikalari bilan ta'minlashga davlat byudjeti mablag'i hisobidan 132,1 milliard so'mga yaqin mablag' sarflandi;

Oxirgi 13 yil davomida xorijiy investitsiya loyihalari doirasida qariyb 234 million 600 ming AQSH dollari miqdoridagi mablag' o'quv laboratoriya va ustaxona jihozlari harid qilishga yo'naltirildi;

1616 nomdagi 7 million nusxada nashr ettirilgan darslik va o'quv qo'llanmalar, 131 nomdagi elektron darslik o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari bazasida tashkil etilgan axborot resurs markazlariga yetkazib berildi;

2010-2011 yillarda kollejlarni tamomlagan 430,3 ming nafar bitiruvchi iqtisodiyot tarmoqlaridagi 127,4 mingta korxonaga birlashtirildi.

2011 yilda 390 mingdan ortiq bitiruvchi ish bilan ta'minlandi;

Bitiruvchilarni o'z ishini tashkil etishga ko'maklashish maqsadida tijorat banklari tomonidan 21 milliard so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratildi va 10 mingdan ziyod yoshlar o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ydi.

Istiqlol yillarida yoshlarimiz tomonidan xalqaro fan olimpiadalarida 20 ta oltin, 49 ta kumush, 88 ta bronza medallarini qo'lga kiritdi va yuzdan ortiq diplomlar qo'lga kiritildi.<sup>1</sup>

1995- yilga qadar respublikamiz o'quvchilari birorta hamfan olimpiadalarida ishtirok etmagan edi. 1995-2011-yillar davomida iqtidorli yoshlarimiz turli xildagi fan olimpiadalarida 244 ta medal, shundan 20 ta oltin, 49 ta kumush, 175 ta bronza medalni qo'lga kiritdi. Ayniqsa Toshkent shahrida 20008 yil may oyida o'tkazilgan ximiya fani bo'yicha Mendeleev nomidagi 42- Xalqaro olimpiadada eng yuqori natija ko'rsatib, 10 ta medal – 1 ta oltin, 1 ta kumush, 8 ta bronza medalni qo'lga kiritdi. Shuningdek, 2009 yil iyul oyida Germaniyaning Breman shahrida matematika fanidan o'tkazilgan 50- Xalqaro olimpiadada 1 ta oltin 2 ta bronza medal bilan taqdirlandi. 2010 yilning iyul oyida Astana shahrida o'tkazilgan matematika fani bo'yicha 51- Xalqaro olimpiadada ham 96 ta mamlakatdan yig'ilgan 517 nafar o'quvchilar qatorida ishtirok etgan 6 nafar yoshlarimiz 4 ta kumush, va 1 ta bronza medalni qo'lga kiritdi <sup>2</sup>

Unib o'sib kelayotgan yangi avlod har bir jamiyatning va xalqning tayanchi hisoblanadi. Mamlakat ravnaqi ko'p jihatdan yoshlarning intellektual salohiyati, intilishlari va sa'y harakatlariga bog'liq. O'zbekiston mustaqillikka erishgan ilk kunlardan oq yosh avlodning barkamol rivojlanishi, uning jismoniy, axloqiy va ma'naviy tarbiyasi, ayniqsa, uning sog'lom voyaga yetishiga g'amxo'rlik qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

1998 yildan sog'liqni saqlashning rivojlanishida yangi davr boshlandi -1998 yil 10 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan «1998-2005 yillarda sog'liqni saqlash tizimini qayta qurish Davlat dasturi» qabul qilindi. Unda mamlakat aholi-siga tibbiy yordam ko'rsatish sifatini oshirish tadbirlari ko'rsatib berildi. Bu dastur asosida sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'inini

---

<sup>1</sup> Xalq So'zi 2012 yil 25 yanvar № 17 (5437)

<sup>2</sup> Xalq So'zi № 21 (5441) seshanba 1-4 bet.

mustahkamlash va umumiy vrachlik amaliyotini rivojlantirish tadbirlari amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nikohga kiruvchi shaxslarni tibbiy tekshirish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2003 yil 25 avgustdagi 365-son qarori sog'lom oilani shakllantirish, irsiy va tug'ma xastaliklari bo'lgan bolalar tug'ilishining oldini olish uchun shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Onalar va bolalarni muhofaza qilish xizmatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari uzoq muddatga mo'ljallangan Davlat dasturlarida ("Ona va bola skriningi" (1998), "Sog'lom avlod uchun" (2000), "Ayollar va o'sib kelayotgan avlodlar sog'lig'ini mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha tadbirlar to'g'risida" (2002)) belgilab berildi. O'zRda bu tizim ayollar, homiladorlar va emizikli onalar mehnatini muhofaza qilish qonunchiligi, onalar hamda bolalarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish, shuningdek, akusherlik-ginekologiya va pediatriya yordamini ko'rsatadigan maxsus davolash-profilaktika muassasalari tarmoqlarini yaratishga asoslangan. Mamlakat mustaqillikka erishganidan so'ng onalar va bolalar sog'lig'i muhofazasiga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar ko'zda tutilgan dasturlar ishlab chiqildi. Ushbu asturni amalga oshirish hamda oilaga tegishli muammolarni har tomonlama hal qilish maqsadida 1998 yildan Toshkentda «Oila» ilmiy-amaliy markazi faoliyat ko'rsata boshladi.

O'zbekistonda ayollar reproduktiv salomatligini yaxshilash va sog'lom oilani shakllantirish bo'yicha respublika va viloyatlar miqyosida «Reproduktiv salomatlik» markazlari tashkil etilgan.

Prezidentimizning "Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlodni shakllantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq mamlakatimizning barcha hududlarida reproduktiv salomatlikni mustahkamlash, onalar va bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatuvchi muassassalar faoliyatini yanada takomillashtirish singari keng qamrovli vazifalar ijrosini taminlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz raxbari tashabbusi bilan hayotga tadbiriq etilayotgan "sog'llom ona sog'lom bola" konsepsiyasi ham

ushbu qonunning uzviy davomidir. "2009-2013-yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ulishi, jismoniy va barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora tadbirlari Dasturi to'g'risi"da qarorlari mamlakatimizda yoshlarni sog'lom voyaga yetishi uchun xizmat qilmoqda. 2010-yil 22-iyulda Vazirlar mahkamasining "Respublika qishloq tumanlarida onalar va bolalarning reproduktiv salomatligini mustahkamlashga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Hukumatning yoshlarning ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan sog'lom o'stirishga qaratilgan chora tadbirlari natijasida so'ngi yillarda O'zbekistonda o'quvchlar o'rtasida o'tkir respiratorli virusli infeksiya bilan kasallanish 12,8, pnevmaniya bilan kasallanish 15.5, bronxit bilan kasallanish 16.2 va skolioz bilan kasallanish 11.6 foizga kamaydi. So'ngi besh yil ichida sport bilan shug'ullanayotgan 10-14 yoshdagi bolalarning bo'yi o'rtacha 2,3 qiz bolalarning bo'yi 2 smga o'sdi. Vazni esa tegishli ravishda o'g'il bolalarda 2, 6 va qiz bolalarda 2, 9 kilogramga oshdi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimining boshqarish tuzilmalari Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent shahar sog'liqni saqlash Bosh boshqarmasi va viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalaridan iborat. Respublikada sog'liqni saqlashni rivojlantirishda O'zR Kasaba uyushmalari federatsiyasi, shuningdek, «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasi, «Qizil yarim Oy» jamiyati, «Nuroni» jamg'armasi va boshqalar o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Avvallari, paydo bo'lgan xavfli kasalliklarni davolash yo'lidan borilgan bo'lsa, endi kasallik tarqalishining oldini olish, profilaktika chora-tadbirlarini ko'rish yo'lga qo'yilgan. Masalan, sil kasalligini tashxislash va nazoratga olish strategiyasi amalga oshirila boshlagandan keyin bu kasallikning og'ir shakllari bilan og'riganlar miqdori respublikada 24% ga kamaydi. Bolalarning 98% i emlanganligi sababli gepatit «V» kasalligi 2000 yildagiga nisbatan 6,1 martaga, 2004 yildagiga nisbatan esa 1,5 barobarga kamaydi. Yuqumli kasalliklar

tarqalishiga qarshi ko'rilayotgan chora-tadbirlar sababli qo'shni davlatlarda tarqalgan chechak va shunga o'xshash xatarli kasalliklar infeksiyalarining yo'li to'sildi.

Yoshlarni sog'lomlashtirishda, ularning bo'sh vaqtini tashkillashtirish va mazmunli o'tkazishda, yot g'oyalardan himoya qilishda sportning o'rni beqiyos. Shuni inobatga olgan holda 2002 yil 24-oktabrda Prezidentimizning "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida"gi Farmon qabul qilindi. Ushbu jamg'arma faoliyatini yo'lga qo'yish masalalariga bag'ishlab o'sha yili o'tkazilgan majlisda davlatimiz rahbari respublikamizning barcha hududlarida yashovchi yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularning aqliy va jismoniy jihatdan sog'lom bo'lib voyaga yetishlari uchun sport bilan muntazam shug'ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish, uch bosqichli sport o'yinlariga alohida e'tibor qaratish zarurligi haqida to'xtalib o'tgan. Shundan so'ng 2004-yil 29-avgustdagi "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ham tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 4 noyabrdagi «Ommaviy sport targ'ibotini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori mamlakatda sportni yanada rivojlantirish, uning mohiyati va ahamiyatini, bu borada amalga oshirilgan katta ishlar va yuksak natijalarni keng jamoatchilikka yetkazish, targ'ibot ishlarini takomillashtirishda muhim rol o'ynadi. 2003 yildan umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari uchun jismoniy tarbiya bo'yicha darslik kitoblari nashr etila boshlandi. Ushbu qaror asosida O'zbekiston teleradiokompaniyasida 2004 yil 1 yanvardan «Sport» telekanali faoliyat ko'rsata boshladi, sport bosma nashrlari soni oshdi, sifati yaxshilandi. Jismoniy tarbiya va sport mavzusi «Sport» (o'zbek va rus tillarda), «O'zbekiston futboli», «Futbol-ekspres», «Asr futboli», «Interfutbol», «Erudit-sport olamida» kabi gazetalarda, «Fan sportga» jurnallari va boshqa ommaviy axborot vositalarida yoritib boriladi. Keyingi yillarda sport mavzusiga bag'ishlangan «Xotira qanotlari», «Notanish polvon»kabi hujjatli va badiiy filmlar yaratildi.

Mustaqillik yillarida sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'lida sportga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan yurtimizda xalqaro andozalar darajasida jihozlangan sport inshootlari, maydonchalar, suzish havzalari barpo etildi. O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 2003-2011- yillarda 1361 ta sport inshooti foydalanishga topshirildi. 2011-yil manzilli qurilish dasturida bolalar sporti obyektlari barpo etish boyicha belgilangan topshiriqlar to'la bajarildi. 130 ta sport inshooti, 19 ta suzish havzasi qurildi.<sup>1</sup>

Eng chekka hududlargaca bolalar sporti obyektlarining keng miqiyosda qurilishi va rekonstruktsiya qilinishi, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish natijasida sport bilan muntazam shug'ullanadigan 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar soni sezilarli darajada oshgan. Jumladan, 1991-yilda 199629 nafar (72326 nafari qizlar) bola sportga oshno tutingan bo'lsa, 2004- yilda bu ko'rsatgich 1007177 nafar (423914 nafari qizlar)ga, bugungi kunga kelib esa 1594461 nafar( 696113 nafari qizlar) ga yetdi. Foiz hisobida oladigan bo'lsak, 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar o'rtasida sport bilan shug'ullanuvchilar 2008-yilda 29,2% dan 2011yilda 34,9%gacha jumjadan qiz bolalar o'rtasida 24,1% dan 31,4% ga oshdi.Qiz bolalarni sportga jalb etish maqsadidadavlatimiz rahbarining 2010-yil 1-aprelda qabul qilingan Qishloq joylaridagi bolalar sporti obyektlarida band bo'lgan ayol sport ustozlari mehnatini rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida''gi qarori qabul qilingandan so'ng ayol sport ustozlari 1,6 barobardan oshdi.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan uch bosqichli musobaqalar tizimi – "Umid nihollari", "Barkamol avlod",hamda unversiada sport o'yinlari yoshlarning aqliy va jismoniy rivojlanishiga qaratilgan yuksak e'tiborning namunasidir.

1993-yil sentabr oyidaO'zbekiston Xalqaro Olimpia Qo'mitasining teng huquqli a'zosiga aylandi. O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi yurtimizda sportni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. O'bekiston yoshlari ilk marotaba mustaqil jamoa sifatida qatnashgan birinchi olimpiadasi 1996-yilda

---

<sup>1</sup> \*Xalq So'zi 2012 11 fevral №30 (5450).

Atlanta AQSH shahrida o'tkazilgan.Unda qatnashgan sportchilarimiz 1 ta kumush hamda 1 ta bronza medaliga sazovor bo'lgan. 2000-yilda Avsraliyaning Sidney shahrida o'tkazilgan XVII yozgi olimpiada o'yinlarida Muhammadqodir Abdullayev boks bo'yicha ilk oltin medalni qo'lga kiritdi. 2004-yilda Afinada bo'lib o'tgan yozgi Olimpiada o'yinlarida Artur Taymazov va Aleksandr Doktorashvili oltin,boshqa sportchilarimiz 1 ta kumush 2 ta bronza medallariga sazovor bo'ldilar. 2008-yilda Xitoyning Pekin shahrida o'tkazilgan Olimpiadada 1 ta oltin,2 ta kumush va 3 ta bronza medallarini qo'lga kiritdi. 2012-yilda London Shahrida o'tkaziladigan XX yozgi olimpiada o'yinlariga munosib tayorgarlik ko'rish maqsadida Prezidentimizning 2009 yil 5-yanvardagi "O'zbekiston respublikasi sportchilarining 2012 yil London shahrida bo'lib o'tadigan XX yozgi Olimpiada va 14-Paralimpiada o'yinlarida ishtirok etishga tayyorgarligi to'g'risida" qarori qabul qilindi.

Bundan tashqari Guanchou shahrida bo'lib o'tgan 16-Osiyo o'yinlarida yoshlarimiz 56 ta medalni qo'lga kiritdilar.<sup>1</sup>

244 nafar o'quvchilar ishtirok etib, 20 ta oltin, 49 ta kumush, 88 ta bronza medallarini qo'lga kiritishgan.

2008-yilning 29-aprel-4-may kunlari Toshkent shahrida kimyo fanidan 42-xalqaro Mendeleev olimpiadasi o'tkazildi. Ushbu olimpiadada 15 ta davlatdan ishtirok etgan 90 nafarga yaqin o'quvchilar orasidan 13 nafar o'zbekistonlik o'quvchilar 1 ta oltin, 1 ta kumush va 11 ta bronza medalini qo'lga kiritishdi.

2009-yil 10-12 iyul kunlari Germaniyaning Bremen shahrida o'tkazilgan 50-xalqaro matematika olimpiadasida 104 davlatlarning 600 ga yaqin o'quvchilar bilan bir qatorda o'zbekistonlik o'quvchilar faol qatnashib, 1 ta kumush va 2 ta bronza medalini qo'lga kiritishdi.

"Kelajak ovozi", "Yangi avlod" kabi respublika tanlovlarining yuqori saviyada tashkil etilayotgani yoshlarda chuqur bilim olishga intilishini kuchaytirish, texnologiyalarini joriy etish bo'yicha raqobat muxitini

---

<sup>1</sup> Xalq So'zi 2012-yil 21-yanvar №15 (5435) 4-bet.

shakllantirishda muhim omil bo'lmoqda.

O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi jamg'armasi va "Kamolot" yoshlar ijtimoiy xarakatining yoshlarga qaratilgan keng ko'lamli loyihalaridan biri – "Kelajak ovozi" iqtidorli yoshlar tanlovi-arxitektura va dizayn, axborot texnologiyalari, ratsionalizatorlik takliflar vatexnik ishlanmalar, tasviriy va amaliy san'at, badiiy ijod va publististika yo'nalishlari bo'yicha butun mamlakat bo'ylab iqtidorli yoshlarni kashf etmoqda. O'tgan besh yil davomida butun respublika bo'ylab 160 000 dan ortiq yigit va qizlar tanlovning saralash bosqichlarida ishtitok etishdi. G'oliblar ta'lim grantlari, stipendiyalarni qo'lga kiritish, shuningdek, eng yaxshi loyihalarga patent olish va moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Respublika oily o'quv yurtlariga o'qish uchun yoshlarni tanlash yagona davlat siyosatini yurguzish, jamiyat intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan keakli shart-sharoitlarni yaratish, ijtimoiy adolat tamoyillarini amalga oshirish va keng jamoatchilik istaklarini inobatga olgan holda hukumatimiz 1992-1993 o'quv yilidan boshlab, tajriba tariqasida mazkur o'quv yurtlariga qabulni kirish imtixonlarsiz –abitutientlarni test sinovidan o'tkazish orqali belgilandi.

O'zbekisron Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi uchun oily o'quv yurtlariga talabalarni tanlab olish respublika Davlat test markazi bilan birgalikda, Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda xolislik va ijtimoiy adolatni ta'minlovchi oily va o'rta maxsus o'quv yurtlariga qabul qilish qoidalarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, shuningdek test sinovlari natijalariga ko'ra abiturientlarni oily o'quv yurtlariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi ishida qatnashish vazifasi belgilandi.<sup>1</sup>

Yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish davlat va jamoat tashkilotlari, birlashmalar va korxonalarining yoshlarga nisbatan huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan vazifalarini shaxsning qadri-qimmatini oilada, mehnat va

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi to'g'risida Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 19 may "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi Qarori bilan tasdiqlangan // "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi"ning veb-sayti –www.lex.uz.

o'quv jamoasida, turar joyda har tomonlama himoya qilishni o'z ichiga oladi. Yoshlarni huquqiy muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda vakillik, ijroya, sud hokimiyati idoralari, shuningdek huquq tartibotni muhofaza qilish idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining yosh fuqarolari Konstitutsiya va qonun hujjatlarida mustahkamlanib qo'yilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va shaxsiy huquq hamda erkinliklaridan to'liq foydalanadilar. Yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ularning yoshiga qarab qandaydir bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yishiga yo'l qo'yilmaydi va bunday hatti- harakatlaramaldagi qonunlarga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Voyaga yetmaganlarning muomala layoqati masalalari, yosh fuqarolar ayrim tomonlarining (nogironlar, uy bekalari, bolalar uyida tarbiyalanayotgan hamda tarbiyalanib chiqqanlarning va hakoza) huquqlarini muhofaza qilish masalalari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinib turadi. O'zbekiston Respublikasida yoshlar orasida odob-ahloqni buzishga, shu jumladan zo'ravonlikni, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday hatti harakatlar man etiladi. Ushbu huquqlar O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari to'g'risida" 429-XII-son Qonunining 6-moddasida keltirilgan bo'lib, yoshlarni huquqiy jihatdan muhofaza qilishning asosi hisoblanadi.

Shuningdek, yoshlarning ta'lim sohasidagi huquqlari ham qonunning 8-moddasida keltirilgan. Unda o'quvchi va talabalarning o'quv-tarbiya muassasalari ma'muriyati bilan o'zaro munosabatlaridagi huquq va burchlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida, shuningdek tegishli muassasalar o'zini o'zi boshqarish idoralarining qarorlarida belgilangan. O'quvchilar, talabalar, yoki ularning qonuniy vakillari o'quv yurtlarining ma'muriyati bilan tegishli qoidalar, shartnomalar ishlab chiqishda ishtirok etadi. O'quvchilar va talabalarni o'quv jarayoni vaqtida ijtimoiy ishlab chiqarishga yo'l qo'yilmaydi, bunday ish ular tanlagan mutaxassislikka mos bo'lib, o'quv-ishlab chiqarish amaliyotining shakli hisoblangan, yoxud o'quvchilar va talabalar o'qishdan bo'sh vaqtlarida ixtiyoriy ravishda jamoa bo'lib yoki yakka tartibda

mehnat qilgan holler bundan mustasnodir. O'quvchilar va o'quv yurtlarining talabalariga o'quv ashyolari, darsliklari va maktab kiyimlarini imtiyozli narxlarda sotib olish huquqi beriladi. Mollar ro'yxati va ularni realizatsiya qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.<sup>1</sup>

## **2.2 Yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan sa'y- harakatlar.**

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning yoshlarga doir siyosati natijasida mamlakat aholisining deyarli uchdan ikki qismini tashkil etgan yoshlarning fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish jarayonlaridagi ishtiroki yuksalib bormoqda. Ularning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar mamlakatda yosh, barkamol avlodni shakllantirish, jamiyat hayotining hamma sohalarida o'z o'rnini egallashlariga imkoniyat yaratib berishdan iborat. Shuning uchun ham mamlakat Prezidenti I. A. Karimov "birinchilar qatorida yosh avlodimizning manfaatlarini ta'minlashni kuchaytirishga qaratilgan huquqiy bazaniyanada mustahkamlash, amaldagi qonun hujjatlarini bugungi kun nuqtai

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Qonuni 20. 11. 1991 yil № 429 "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari to'g'risida" 6-7 moddalar

nazaridan qayta ko'rib chiqish" hamda yoshlarga "nafaqat ishonch bildirish, balki ularga amalda o'zini namoyon etishi uchun maydonni kengaytirish"<sup>1</sup> vazifasini qo'yar ekan, bu bilan yoshlarga doir siyosatni mamlakat taraqqiyoti strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida baholadi.

Yoshlarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish jismoniy aqliy, ahloqiy jihatdan o'sishini va xalqining manfaatlari yo'lida ijtimoiy kamol topishini ta'minlash uchun yosh fuqarolar va ularning oilalariga beriladigan davlat kafolatlarini o'z ichiga oladi:

- O'zbekiston Respublikasida yoshlar uchun bepul tibbiy xizmat;
- bepul ta'lim olish;
- sport-sog'lomlashtirish vama'daniy-ma'rifiymuassassalarga imtiyozli shartlarda qatnash;
- uy- joy qurish, ro'zg'or buyumlari sotib olish uchun imtiyozli kreditlar berish;
- dastlabki mehnat faoliyati uchun ish joyi bilan ta'minlash yoki amaldagi qonunlarga muvofiq moddiy kompensatsiya olish huquqi; ijtimoiy infrastruktura obyektlarini loyihalash va qurish chog'ida yoshlarningtalab-extiyojlarini hisobga olish;
- o'quvchilar, talaba yoshlar va voyaga yetmaganlar uchun transportda yurish imtiyozlari;
- voyaga yetmaganlaarga kompensatsiya to'lovlarini kafolatlovchiijtimoiy ta'minlanish minimumi belgilanadi.

Voyaga yetmaganlarni, yosh fuqarolarning ayrim toifalarini (nogironlar, uy bekalari, bolalar uyida tarbiyalanayotgan va tarbiyalanib chiqqanlar, o'quvchilar,

---

<sup>1</sup> Karimov I.A Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir.O'zbekiston RespublikasiKonstitutsiyasining 15 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza.2007 yil 7 dekabr T. O'zbekiston, 2007.-B.37,46

talabalar, harbiy xizmatni o'tab qaytgan harbiy xizmatchilar, zaxiradagi harbiy xizmatchilar va shu kabilarni) ijtimoiy muhofaza qilishga qaratilgan maxsus chora-tadbirlar, shuningdek ularning huquqlarini amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasining qonunlari bilan belgilanadi.<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholining huquqiy tarbiyasini yaxshilash, huquqiy madaniyati darajasini oshirish, huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish bo'yicha ishlarni yaxshilash to'g'risida" 1997 yil 25 iyundagi PF-1791-son Farmoni o'zbek jamiyatining siyosiy faolligini oshirishga, huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga hamda inson huquq va erkinliklariga rioya qilish, siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish muammolari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar taraqqiyotining dolzarb masalalari to'g'risida jamoatchilik fikrini o'rganish ishlarini yaxshilashga qaratilgan. Mazkur Farmon asosida nodavlat, mustaqil ilmiy-tadqiqot markazi bo'lgan "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kelajak ovozi" O'zbekiston yoshlarining har yilgi respublika tanlovini o'tkazish to'g'risida" 2006 yil 14 martdagi 45-son qarori mamlakatimizning barcha mintaqalarida yashovchi qobiliyatli va iqtidorli yoshlarni aniqlashga, fan, san'at, zamonaviy texnologiyalar sohasida salohiyatlarini ochish uchun ularga yangi imkoniyatlar yaratib berishga qaratilgan. "Kelajak ovozi", "Yangi avlod" kabi respublika tanlovlarining yuqori saviyada tashkil etilayotgani yoshlarda chuqur bilim olishga intilishni kuchaytirish, innovatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha raqobat muhitini shakllantirishda muhim omil bo'lmoqda. O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi jamg'armasi va "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining yoshlarga qaratilgan keng ko'lamli loyihalaridan biri - "Kelajak ovozi" iqtidorli yoshlar tanlovi — arxitektura va dizayn, axborot texnologiyalari, ratsionalizatorlik takliflar va texnik ishlanmalar, tasviriy va

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari to'g'risida" 20.11.1991 yil №429-XII 10-modda

amaliy san'at, badiiy ijod va publitsistika yo'nalishlari bo'yicha butun mamlakat bo'ylab iqtidorli yoshlarni kashf etmoqda. G'oliblar ta'lim grantlari, stipendiyalarni qo'lga kiritish, shuningdek, eng yaxshi loyihalarga patent olish va moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'lishmoqa.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligini tashkil etish to'g'risida" 2001 yil 13 fevraldagi PF-2810-son Farmoni. Demografik rivojlanish bashoratlarini amalga oshirish bo'yicha ishlarni bajarish va nazorat qilish, mehnat bozorini shakillantirish va aholining, ayniqsa yoshlarning bandligini ta'minlash bo'yicha faol siyosat olib borish vazirlik faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yoshlar va band bo'lmagan aholining kasbiy istaklari va ishga moyilliklarini aniqlash uchun sotsiologik tadqiqotlar o'tkazadi. Ishsizlarni kasbiy o'qitish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijtimoiy himoya yili" davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha tashkiliy choralar to'g'risida" 2006 yil 12 dekabrda F-2632-son Farmoyishi jismoniy sog'lom, ma'naviy boy avlodni shakillantirish, onalik va bolalik haqida g'amxo'rlikni kuchaytirish, "Sog'lom onadan sog'lom bola"; yoshlarning qobiliyatlari va salohiyatlarini namoyon qilishlari uchun sharoitlar yaratish; yosh oilalarga imtiyozli kreditlar berish bo'yicha chora-tadbirlarni yanada kengaytirishni nazarda tutadi.

Talabalarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat Stipendiyasini tayinlash uchun quyidagi mezonlarni bajarish belgilandi: umumta'lim tayyorgarligini ilmiy-tadqiqot (ijodiy) ishlari bilan uyg'unlashtirish; konferentsiya (tanlov)larda qatnashish; nashr etilgan ishlar (asarlar)ning mavjudligi; til bilish — davlat tilini va kamida ikkita chet tilini bilish, mutaxassisligi chet tili bo'lgan ayrim hollarda yana bitta chet tilini bilish qo'shimcha ravishda talab qilinadi; kompyuterni bilish; O'zbekiston tarixini yaxsh bilish.<sup>1</sup>

Zulfiya 1999 yil 10 iyunda

---

<sup>1</sup>Talabalar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari to'g'risida Nizom va ularni tayinlash

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-2326--son Farmoni qabul qilindi. Qonunga muvofiq :

1. O'zbekiston Xotin qizlar qo'mitasi huzuridagi Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti komissiyasining taklifiga binoan, a'lo xulqi, zukkoligi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari, tashabbuskorligi bilan noyob istedodini namoyon etayotgan hamda adabiyot, madaniyat, san'at, fan, ta'lim va sport sohalaridagi alohida yutuqlari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining iqtidorli qizlari Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlanadi;
2. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlanganlarga 8 mart – Xalqaro xotin – qizlar bayramiga bag'ishlab o'tkaziladigan tantanalarda sovrindorlik diplomlari va ko'krak nishonlari topshiriladi;
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlarining har biriga eng ka mish haqining 50 barov miqdorida pul mukofoti berilishi ta'minlanadi;
4. O'zbekiston Milliy axborot agentligiga Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibalarining ibratli faoliyati, ularning noyob istedodi va erishgan yutuqlarini keng yoritib boorish tavsiya etilgan;
5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari zimmasiga yuklatilgan.<sup>1</sup>

Ushbu mukofot yurtimizning atoqli shoirasi Zulfiyaning nomiga berilgan

---

tartibi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 25 mart "O'zbekiston o'quvchi yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida" Qaroriga 2-ilova // [www.lex.uz](http://www.lex.uz) O'zbekiston Respublikasining Qonuni "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari to'g'risida" 20.11.1991 yil №429-XII 10-modda .

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori "Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida" Turkiston 2011 6 mart, yakshanba №19 (15449) 1- bet

bo'lib, maktabda, litseyda, kolleжда va oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan qizlarga adabiyot, madaniyat, san'at, fan va ta'lim sohasidagi alohida yutuqlari uchun davlat mukofoti beriladi. Zulfiya nomidagi davlat mukofoti har yili xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining bittadan vakilasiga beriladi. Ajablanarlisi shundaki, dunyoning hech qaysi mamlakatida yoshlarga shu jumladan, aynan, ayollarga atab mana shunday mukofot ta'sis etilmagan. Bu nafaqat sog'lom avlodni dunyoga keltirib, to'g'ri tarbiyalab, voyaga yetkazuvchi, balki jamiyatning rivojlanishida, davlatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va madaniy hayotida o'z o'rniga ega bo'lgan ayollarga berilayotgan yuksak darajadagi e'tiborning namunasidir.

Shu kungacha Farg'ona viloyatidan 12 nafar sovrindorlar bo'lsa, ularning besh nafari Farg'ona Davlat Universitetidan Zulfiya mukofotiga sazovor bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Kamolot" O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy harakati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarida muddatli harbiy xizmatni o'tab, ta'limning to'lov-shartnoma shaklida oliy o'quv yurtlariga qabul qilingan fuqarolardan bo'lmish talabalarga moddiy yordam berish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" 2006 yil 12 sentyabrdagi 80-son va 211-son qarori bunday yordamni ko'rsatish shart-sharoitlarini va tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi" faxriy unvonini ta'sis etish to'g'risida" 1998 yil 1 maydagi Qonuni xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy San'atini rivojlantirishda alohida xizmatlarga ega bo'lgan, milliy madaniyatni rivojlantirishga va iqtidorli yoshlarni tarbiyalashga katta hissa qo'shgan xalq hunarmandlarini faxriy unvon bilan taqdirlashni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" 1999 yil 3 sentyabrdagi PF-2385-son Farmoni. Barcha xalqimiz, jumladan yoshlar milliy qadriyatlar va buyuk mutafakkirlarning merosidan foydalanishlariga, islom dinining insonparvarlik falsafasi va uning g'oyalari yosh avlodning qalbiga singishiga yordam berish

kengash ishining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 5 apreldagi 96-son qaroriga 1-ilova "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi to'g'risida nizom" shuni nazarda tutadiki, ijodkor yoshlarga har tomonlama yordam ko'rsatish, ularning o'z qobiliyatlari va iqtidorlarini to'la namoyon qilishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish, jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholida, birinchi navbatda yoshlarda sport bilan shug'ullanish, sog'lom turmush tarziga intilish zarurligini tushunishni shakllantirish, yoshlarni mehnatga va mamlakat qurolli kuchlarida xizmat qilishga tayyorlash vazirlik faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi yoshlarining "Kamolot" jamgarmasi to'g'risida" 1996yil 17 apreldagi PF-1425-son Farmoni. Jamg'arma o'zini o'zi boshqaradigan, moliyalashtiradigan, yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan o'z faoliyatini mustaqil amalga oshiruvchi nohukumat jamoat birlashmasi hisoblanadi. Yoshlarga zamonaviy bilimlarni, texnologiyalarni egallashda, bozor iqtisodiyoti qonunlari va amaliyotini o'zlashtirishda, shuningdek, yangicha fikrlashni shakllantirishda yordam berish jamg'arma faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri qilib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtidorli yoshlarning chet elda bilim olishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha "Umid" jamgarmasini tashkil etish to'grisida" 1997 yil 7 yanvardagi PF-1694-son Farmoni. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari uchun yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlash jamgarma faoliyatining asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Iqtidorli yoshlarni tanlash va chet elda o'qitish har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining grant tanlovlari asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risida" 1997 yil 8 yanvardagi PF-1695-

son Farmoni. "Bahor", "Lazgi", "Zarafshon" va "Tanovar" ansambllari negizida Madaniyat ishlari vazirligi tizimiga kiruvchi M.Turg'unboeva nomidagi "O'zbekraqs" milliy raqs birlashmasi tuzildi.

Birlashmaning faoliyati o'zbek xalqining bebaho go'zal raqslari hazinasi na'munalarini xalq va ayniqsa yosh avlod ongiga singdirishga qaratilgan.

### **2.3 Davlatning yoshlar tadbirkorligini qo'llab quvvatlashi.**

Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqida "...ayni paytda kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarini bitirib chiqayotgan yoshlarimiz egallayotgan eng zamonaviy bilim va ko'nikmalarini amalda joriy etishi uchun ularni kichik biznes va tadbirkorlik sohasiga keng jalb qilish masalasiga prinsipial ahamiyat berilishi kerakligi"ni alohida ta'kidlagan edi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998 yil 28 iyulda 487-raqam bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasida kasanachilik mehnatini tashkil etish tartibi

to'g'risida nizom" kasanachilik mehnati bilan band bo'lgan fuqarolarni, jumladan, umumta'lim maktablarini va boshqa O'quv yurtlarini bitirgan yoshlarni, shuningdek, o'smirlarni ijtimoiy himoya qilishni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi mehnat va axolini ijtimoiy himoya qilish vazirligini tashkil etish to'g'risida" 2001 yil 13 fevradagi PF-2810-son Farmoni. Demografik rivojlanish bashoratlarini amalga oshirish bo'yicha ishlarni bajarish va nazorat qilish, mehnat bozorini shakillantirish va aholining, ayniqsa yoshlarning bandligini ta'minlash bo'yicha faol siyosat olib borish vazirlik faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bozor isloxtlari talablarini hisobga olgan holda qishlok yoshlarining kasbiy ta'limini qayta yo'naltirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" 1995 yil 29 iyuldagi 296-son qarori qishloqda xususiy sektorni rivojlantirishga, qishloq yoshlarini faol tadbirkorlik faoliyatiga hamda bozor iqtisodiyoti sharoitlarida zarur kasblar va mutaxassisliklarni egallashga jalb qilishga va bu yo'lda ularni rag'batlantirishga qaratilgan. Qishloqda joylashgan kasb-hunar bilim yurtlari faoliyatini tubdan qayta yo'naltirishni amalga oshirish, ularni tadbirkorlik bo'yicha o'quvmarkazlariga – kasb litseylari va biznes maktablariga; o'rta maxsus o'quv yurtlarini esa kichik va o'rta biznes, fermer xo'jaliklari va aholiga xizmat ko'rsatish sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash bo'yicha kollejlarga aylantirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 8 maydagi 95-son qaroriga 1-ilova "O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi to'g'risida nizom". O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi aholining bandligi, yoshlarning ishga joylashishi, xodimlarning va aholi boshqa toifalarining ishdan bo'shishi, shuningdek, bo'sh ish o'rinlari bo'yicha axborotlarni shakillantirish va tahlil qilishni tashkil etadi. O'z yordamchi va dehqon xo'jaliklarida qora mollar boqish bilan shug'ullanayotgan shaxslarni hisobga olishni tashkil etadi, yoshlar va band bo'lmagan aholining kasbiy istaklari va ishga moyilliklarini aniqlash uchun sotsiologik tadqiqotlar o'tkazadi.

Ishsizlarni kasbiy o'qitish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2007 yil 18 maydagi PF-3878-son Farmoni respublikaning har bir mintaqasida yangi ishchi o'rinlar yaratish, yoshlarni kichik biznes va tadbirkorlikka faol jalb qilish, yosh oilalarga o'z ishini tashkil etish uchun mikrokreditlar ajratish, kasanachilik mehnatini rivojlantirish asosida yosh oilalarning ish bilan bandligini ta'minlash va barqaror daromad manbalarini shakllantirish uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan. Yosh oilalarga uy-joy olish yoki qurishda, uy xo'jaligini tashkil etishda ipoteka va iste'mol kreditlari berish orqali har tomonlama yordam ko'rsatiladi. Birinchi marta qayd qilingan nikohga kirayotgan 30 yoshdan oshmagan er-xotinlar mazkur Farmon harakati tatbiq etilayotgan yosh oila toifasiga kiradi.

Davlatimiz rahbarining 2010 yil 28 iyuldagi "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni talablari asosida yoshlar, birinchinavbatda, kollej bitiruvchilarining bandligini ta'minlash borasida maqsadli ishlar amalgam oshirilmoqda.

2009-2010 o'quv yilida 400,9 ming nafar kollej bitiruvchilaridan 290 ming nafardan ziyodi kichik korxonalar bilan tuzilgan uch tomonlama shartnomaga ko'ra ish bilan ta'minlanishi belgilangan edi. Farmonga muvofiq, kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun kollej bitiruvchilari hisobiga ishlovchilar soni 20% ga oshganda ham imtiyoz va kafolatlar saqlab qolinishi belgilangani muhim ahamiyat kasb etadi.

2011 yilning "Kichik biznes va hususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan Kamolot Yoshlar Ijtimoiy Harakati qoshida yosh tadbirkorlar uchun "ishonch telefonlarni" tashkil etish, endigina tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan yoshlarga tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, davlat ro'yxatidan o'tish, biznes rejalar tuzish, zarur xujjatlarni rasmiylashtirishga ko'maklashish maqsadida o'quv qo'llanmalar yaratildi. Bugungi kunda harakat

qoshida 72 ta “kamolot korxonalari” tashkil qilindi. Ular safini yanada oshirish maqsadida tijorat banklarining imtiyozli kreditlarini jalb qilgan holda har bir hududda jami bitta bog’dorlik, uzumchilik, sabzavotchilikka ixtisoslashgan “kamolot fermer xo’jaliklari” va sanoat sohasida yuqori texnologiyalarni jalb qilgan holda “kamolot korxonalari” tashkil qilindi.<sup>1</sup>

Kamolot yoshlar Ijtimoiy Harakati Tadbirkorlik ko’nikmalarini shakllantirish, imtiyozli kredit mablag’lari bilan ta’minlash maqsadida “Mikrokreditbank”, “Agrobank”, Savdo sanoat palatasi hamkorligida “Yosh tadbirkor – yurtga madadkor” hamda “Yosh tadbirkor kamoloti – qishloq taraqqiyoti kafolati” tanlovlarini o’tkazib kelmoqda. O’zining biznes rejaları bilan tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo’lgan yoshlarga har tomonlama ko’maklashish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini tashkil etish, oilaviy biznes va kasanachilikni rivojlantirish orqali yangi ish o’rinlarini yaratish maqsadida tashkil qilingan mazkur loyihalar orqali 70 nafar yosh tadbirkor foizsiz kreditlarni qo’lga kirib, yurtimizning turli hududlarida faoliyat yuritmoqda. 2010 yilda bo’lib o’tgan “Yosh tadbirkor – yurtga madadkor” tanlovida qatnashgan va g’olib bo’lgan oqqo’rg’onlik Saodat Isroilova 4 millio 700 ming pul mukofotini yutib oldi.<sup>21</sup>

Yoshlarning tadbirkorlikka qiziqishini ortirish maqsadida olib borilayotgan islohotlar natijasida 2008 yilda foizsiz kredit olganlar 17 tani tashkil etgan bo’lsa, 2009 yilda 23 ta, 2010 yilda 26, (2011 yilda 70 nafarga yetdi).<sup>1</sup>

Yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish bo’yicha eng ko’p e’tibor va kredit mablag’lari ajratayotgan “Mikrokreditbank” tomonidanshu paytga qadar kasb – hunar kollejarinibitirib chiqqan yoshlarni egallagan kasblari bo’yicha tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish maqsadida ularga 7,7 milliard so’m miqdorida kreditlar ajratildi. Umuman, Mikrokreditbank aksiyadorlik tijorat banki tashkil etilgandan buyonyosh tadbirkorlarni qo’llab quvvatlashga 94 milliard so’m kredit mablag’lari

---

<sup>1</sup>2010 yil Turkiston 29 dekabr chorshanba № 103-104 (15430)

<sup>1</sup> Turkiston 2010 8 dekabr chorshanba № 96-97 (15423).

ajratildi. Bank tomonidan, shuningdek, viloyat o'rta maxsus kasb – hunar kollejlari, ta'lim boshqarmalari bilan “Bank va kollej hamkorligi” loyihasi ham yo'lga qo'yilgan. Bundan ko'zlangan maqsad 2011-2012 o'quv yilida kasb – hunar kollejlari bitirgan yoshlarni moliyaviy qo'llab quvvatlash uchun boshlang'ich sarmoya mikrokraditlarini ajratishdir. Kamolot Yoshlar Ijtimoiy Harakati O'zbekiston Savda sanoat palatasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligibilan hamkorlikda kasb – hunar kollejlari va akademik litseylar bitiruvchilarining bandligini ta'minlash, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini yo'lga qo'yishga ko'maklashuvchi “Mening biznes g'oyam” tanlovi ham o'z samarasini bermoqda. Mazkur tadbir kasb – hunar kollejlari va akademik litseylarda insho , tuman bosqichida mutaxassislar ishtirokida maxsus o'quv seminar, biznes rejalar tanlovi hamda “Yozgi o'quv oromgohi” tariqasida amalga oshiriladi.. Mazkur loyiha natijasiga qariyb, o'n ming nafarga yaqin kasb – hunar kollejlari va akademik litseylar bitiruvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga, ikki ming nafar bitiruvchiga esa imtiyozli mikrokraditlar ajratishga ko'maklashildi. Harakatning mazkur bo'limi tomonidan tadbirkorlik faoliyatiga endigina qadam qo'yayotgan yoshlarni uslubiy qo'llab quvvatlash maqsadida o'quv – qo'llanma yaratish ustida ish olib borilmoqda. Bu, albatta, yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb qilishda kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega.

Loyihalardan yana biri “Eng yaxshi innovatsion loyiha” tanlovidir. Mazkur loyiha orqali foydali yangiliklarni yaratayotgan yoshlarni innovatsion loyihalarini amaliyotga tadbiiq etish uchun “Kamolot” grantlari joriy qilish rejalashtirilmoqda.<sup>1</sup>

Mikrokraditbank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 28 iyuldagi “Ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni talablaridan

---

<sup>1</sup> Biznes rejadani mini texnologiyagacha \ Turkiston 2011 yil 23 fevral.

kelib chiqib kasb – hunar kolleji bitiruvchilarini egallagan kasbi bo'yicha tadbirkorlikka jalb etish uchun 2012 yil 6,2 milliard so'm miqdorida imtiyozli boshlang'ich sarmoya ajratildi.<sup>2</sup>

---

<sup>2</sup> Jadal rivojlanish va farovonlik yo'lida. "Xalq So'zi" 2012 yil 5 may №88 (5508)

## **Xulosa**

BMI ning xulosa qismida shuni takidlamochimanki, bugun dunyoda globallashuv va demokratlashuv jarayonlari avjiga chiqqan bir payitda, O'zbekiuston o'z maqsadlarini aniq va ravshan belgilab olgan holda, umuminsoniy tamoillarni o'zida mulassamlashtirgan, erkin va farovon jamiyat barpo etish yo'lida sobitlik bilan qadam tashlamoqda. Mamlakatimizda yashayotgan barcha fuqorolarning erkinliklarini ta'minlab beruvchi, ularning manfaatlarini ifoda etuvchi ijtimoiy va siyosiy institutlar faoliyatini rivijlantirish orqali "davlat - fuqoro" munosabatlari tizimini yaratish va takomillashtirish masalasi bugun davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yosh avlod bu jarayonlarning izchil davom etishini ta'minlaydi, amalga oshirilayotgan demokratik ruxdagi islohatlarning sub'ekti sanaladi.

Jamiyatning tashabbuskor kuchlari sifatida yoshlar bugungi O'zbekistonda ta'sirchan kuchga aylangan. Ularning yetakchilik, tashabbuskorlik kabi xususyatlarini hisobga olish, ijtimoiy-siyosiy faolliklarini rag'batlantirish, ijtimoiy institutlar orqali siyosiy institutar va siyosiy jarayonlaridagi ishtirokini ta'minlash O'zbekistonda kechayotgan demokratik islohatlarning muhim va o'zgarmas shartlaridan biri hisoblanadi.

Yoshlarga oid siyosatning hayotga tadbiiq etilishi natijasida bugunga kunda milliy istiqlol g'oyasi tafakkuriga singdirilgan, yurtimiz ertangi kunining davomchilari bo'lgan yoshlar tarbiyalanib yetildi . Hozirgi yoshlar bundan 20 yil avvalagi shakllangan yoshlardan g'oyaviy, ilmiy, siyosiy va madaniy jihatdan yuksak darajada farq qiladi. Buning sababi esa, o'z mustaqilligimizni qo'lga kiritganimizdan so'ng yoshlar ongida o'z mamlakati taqdiri borasida kuyinishi, turli madaniy- ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqalari va o'yinlarida erishgan yutuqlaridan g'ururlanish, ona vatanni e'zozlash, o'z millatiga aloqadorlikdan quvonish va kelajakka ishonch tuyg'ulari shakllandi.

Ammo yoshlar orasida ba'zi yot g'oyalar tarqalishi, yoshlarning turli diniy oqimlarga kirib qolishi, OITS, narkomaniya, jinoyatchilkning tarqalishi, yoshlarda

barqarorlik kayfiyatlarining ortib borishi kabi vaziyatlar yoshlar orasida uchray turadi.

Yoshlar o'rtasidagi ma'naviy qashshoqlik, eng avvalo, moddiy ta'minotning hayotiy mezonga aylanganligi, moliyaviy extiyojni yuqori darajada qo'yish, boqimandalik, jur'atsizlik, siyosiy ongning past darajada ekanligi bilan belgilanadi. Ularning ma'naviy qashshoqlik domidan chiqarib ilm va ma'rifat, saodat, vatanparvarlik, qat'iyat kabi fazilatlarni ular ongiga singdirish hozirgi kunda naqadar muhimligi anglab yetishimiz kerak.

Xullas bugungi siyosiy tizimda biz yoshlarning siyosiy ongi va siyosiy madaniyatini shakillantirishda tarixiy-siyosiy tajribani o'zida mujassam etgan holda vatanimizga munosib farzandlar bo'lishimiz kerak.

## **Foydalanilgan manbalar va adabiyatlar**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning asarlari:

1. Karimov I.A. Yuksak- manaviyat yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat. 2008
2. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz Toshkent. O'zbekiston. 2000.
3. Karimov I.A. Yoshlarimiz -xalqimizning ishonchi va tayanchi. Toshkent. Ma'naviyat. 2006
4. Karimov I.A. Kamolot yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin. Toshkent. O'zbekiston. 2001
5. Karimov I.A. Ozbekiston XXI asr bo'sag'asida, xafsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyat kafolatlari. Toshkent. O'zbekiston. 1997
6. Karimov I.A. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir // O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining qabul qilinganligining 15 yilligiga bag'ishlangan tantanali ma'rosimdagi ma'ruza // Xalq so'zi. 2007 8- dekabr

### **Prezident farmonlari.**

1. Zulfiya nomidagi davlat mukofoni ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvatlash to'g'risiga // 1999 10-iyun – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O'zbekiston bolalar sportini rivijlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida // 2002 24-oktyabr – [www.uza.uz](http://www.uza.uz)
3. 2004-2008 yillarda maktab ta'limini rivijlantirish dasturini tayyorlash bo'yicha chora tadbirlar to'g'risida // 2004 19- fevral – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. Xalq ta'lim muassalarini moliyalashtirish tartibini takomillashnirish to'g'risida // 2007 26- fevral – [www.uza.uz](http://www.uza.uz)
5. Yoshlar yili davlat dasturi to'g'risida 2008 28- fevral – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

### **Vazirlar Mahkamasining qarorlari.**

1. O'zbekiston yoshlarini xorijiy mamlakatlarda o'qishga yuborish to'g'risida // 1992. 22-iyul – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

2. O'zbekiston yoshlar ishlari bo'yicha respublika kengashini tuzish to'g'risida // 1992. 4-dekabr – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. O'quvchi yoshlarni mukofotlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida 1993. 25- mart – [www.uza.uz](http://www.uza.uz)
4. Davlat test markazi tarkibida kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagogik kadrlarini va ta'lim muassalarini attetatsiyadan o'tkazish boshqarmasini tuzish to'g'risida // 1998. 11 –mart
5. “ Kamolot ” O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy harakatini faoliyatini tashkil etishga yordam ko'rsatish to'g'risida // 2001. 30 –may – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

### **Adabiyatlar.**

1. Ergashev I. Milliy istiqlol g'oyasi : O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim bakalaviriyat bosqichi uchun darslik T : Akademiya 2005 B . 81
2. Inomjonova M. Yoshlar va siyosat “ Yuksak ma'maviyat – yoshlarga doir siyosatsamaradorligini oshirish omili ” Respublika ilmiy –amaliy konferensiyasi materiyallari T. 2008 B 79-81
1. G'lomov S. Kuch bilim va tafakkurda. T. O'zbekiston. 2002 B 11-157
2. O'zbekiston Respublikasi Entbklpediyasi. Toshkent B. 369-385
3. Yillik statistik to'plam. O'zbekiston. 2007
- Davriy matbuot materiyallari.
1. Sog'lom farzand –yurt kelajagi. Xalq So'zi. 2012. 13-yanvar
2. E'tibor va g'amxo'rlik na'munasi. Xalq So'zi. 2011. 31- yanvar
3. Barkamol avlod vatan tayanchi. Xalq So'zi 2012. 25-yanvar
4. O'zbekiston xalqiga yangi yil tabrigi. Xalq So'zi. 2012. 1- yanvar
5. Mamlakatimizda: voqealar, yangiliklar, xabarlar. Xalq So'zi 2012. 1 may
6. Ta'limda yangicha yondashuv. Xalq So'zi . 2012. 4 -fevral
7. Istiqbolli takliflar. Turkiston. 2010. 29 -dekabr
8. Bolalar sporti- o'zbek sportining kalajagi. Turkiston. 2011. 26- fevral
9. Tadbirkorning niyatlari mulk. Turkiston. 2010. 22-dekabr
10. Yangroq ovozlari. Turkiston. 2010. 20-noyabr
11. Karimov I.A. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir // O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining qabul qilinganligining 15 yilligiga bag'ishlangan tantanali ma'rosimdagi ma'ruza // Xalq so'zi. 2007 8- dekabr